

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_L.Raupova

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019-yil

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi yo‘nalishi IV kurs 402-guruh talabasi  
Ergasheva Habiba O‘ral qizining

**“O‘zbek modern she’riyatini o‘qitishning interaktiv usullari”**  
mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ f.f.n H.Ahmedov

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi  
kafedrası katta o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

\_\_\_\_\_ F.f.d. Ulug‘bek Hamdam

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası dotsenti

\_\_\_\_\_ D.Qosimova

ToshDO‘TAU akademik litseyi oliy toifali  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi

kafedrası mudiri, f.f.nomzodi

\_\_\_\_\_M.Abdullayeva

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019-yil

## MUNDARIJA:

<b>BMIning umumiy tavsifi.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. Modern adabiyotni o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari</b>	
1.1. Ta’lim jarayonida modern she’riyatni o‘qitishning ahamiyati .....	8
1.2. Modern adabiyotning paydo bo‘lishi va ta’lim jarayoniga kirib kelishi ....	17
<b>II bob. Modern she’riyatni o‘qitish metodikasi</b>	
2.1. Modern she’riyatni o‘qitishga doir yondashuv va tamoyillar .....	28
2.2. Modern she’rlarni noan’anaviy usullarda o‘qitish .....	35
<b>III bob. BMIning amaliyotga tatbiqi</b>	
3.1. Ta’lim jaroyinida Rauf Parfi ijodini o‘rganish .....	39
3.2. Tajriba-sinov materiallari (ochiq dars ishlanmasi, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, tajriba-sinov tahlili) .....	40
<b>XULOSA .....</b>	<b>59</b>
<b>Glossary – lug ‘at .....</b>	<b>62</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>	<b>64</b>

## **BMINING UMUMIY TAVSIFI**

“Ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlarini zamon talablari asosida takomillashtirish – birinchi darajali vazifamiz”.<sup>1</sup>

**Shavkat Mirziyoyev**

**Mavzuning dolzarbligi.** Ta’lim-tarbiya masalasi hamma zamonda ham eng e’tiborga molik yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridan ta’lim ilohotining amalga oshirilishi, ta’lim to‘g‘risidagi yangi tahrirdagi qonunning qabul qilinishi hamda ta’lim muassasalari binolarining zamonaviy talablarga mos tarzda jihozlanishi ham bu fikrimiz isbotidir. Ta’lim va tarbiyaga e’tibor yuqori bo‘lgan, farzandlari ma’naviyati yuksak shakllangan davlatda faravon jamiyat tashkil etish mumkin. “Xalq ma’naviyati bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g‘ayrat va ilhom olib, o‘zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanligini namoyon etadi”<sup>2</sup>.

Ta’limda, ayniqsa, adabiyot ta’limi muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchining tafakkuri, og‘zaki va yozma nutqining rivojlanishida adabiyotning o‘rni beqiyos. Adabiyot ta’limida nasriy va nazmiy asarlar uyg‘unligining guvohi bo‘lamiz. Ma’lumki, modern she’riyat namunalari ta’limning barcha bosqichlarida ham o‘qitilavermaydi, sababi bu yo‘nalishdagi she’rlar o‘z o‘quvchisidan keng tafakkur hamda chuqur mushohadani talab qiladi. Maktab o‘quvchisining yoshi va dunyoqarashi hisobga olingan holda maktab ta’limida modern she’riyatdan namunalar keltirilmas edi. 2018-yilda nashr etilgan umumta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari uchun tayyorlangan darslikda o‘zbek modern she’riyatining asoschilaridan biri bo‘lmish shoir Rauf Parfi hayoti va ijodi haqida ma’lumot berib o‘tilgan. Undan avval umumta’lim maktablarining

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv. - Guliston: 2018.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: 2008. 169-170-бет.

7-sinflari uchun tayyorlangan darslikning muqaddima qismida Rauf Parfining “Tong otmoqda” she’ridan birinchi bandi keltirilib, tahlilga tortilgan.

Lirik tur janrlarining asosida ham inson hayoti, muhabbati va nafrati, sevinchi va iztirobi o‘zining badiiy ifodasini topadi. Lirik asarlarni yosh avlodga o‘rgatish va ulardagi ezgu g‘oyalarni o‘quvchilar ongiga singdirish bugungi kun adabiyot o‘qituvchisining eng asosiy vazifalaridan biridir. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash» Milliy dasturi, Respublika hukumati tomonidan keyingi vaqtda qabul etilgan qarorlar, o‘quv predmetlari bo‘yicha DTS (davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda boshqa o‘quv-metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Adabiy ta’lim asosini adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari hamda uning mazmuni tushunchalari tashkil etadi. «Adabiyot, - deydi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, - so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma’naviyatimizning g‘oyat muhim va uzviy qismi bo‘lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag‘batlantirish...» borasida ko‘plab savobli ishlar amalga oshirildi<sup>3</sup>.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki, darsliklarda berilgan modern she’riyat namunalarini o‘qitishning interaktiv usullarini ishlab chiqib, uni amaliyotga tatbiq etish orqali o‘quvchilarga umumiy modernizm, xususan, modern she’riyat haqida atroflicha bilimlar berish nazarda tutilgan. O‘zbek adabiyotida modern she’rlar tahlili ustida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, lekin modern adabiyotni o‘qitish metodikasi nazariyadan biroz orqada qolmoqda. BMIning dolzarbligi ham aynan shu metodikani to‘liqroq yoritib berishga qaratilgan va o‘qitishning bu yondashuvi orqali o‘quvchilarni modern adabiyot murakkab ekanligi sababli undan qochishga urunish tushunchasidan uzoqlashtirish, modern adabiyot mohiyatini tushuna olsa, o‘quvchiga o‘zgacha estetik zavq paydo bo‘lishini anglatish ishning dolzarbligidir. Chunki aksariyat

---

<sup>3</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: 2008. 137- бет.

kitobxonlar orasida modern adabiyot murakkab adabiyot, o'quvchini biroz zeriktirib qo'yadi, degan qarashlar yo'q emas, afsuski, maktab ta'limida modern she'riyatni o'qitish mobaynida o'quvchilarni yuqorida aytilgan fikrlardan uzoqlashtira olsak, ishning haqiqiy mohiyatiga yetilgan bo'ladi.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Yuqorida aytilganidek, modernistik she'riyat haqida ko'pgina o'zbek adabiyotshunoslari o'z fikrlarini aytib o'tishgan hamda turli yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, atoqli o'zbek munaqqidi Ozod Sharafiddinov "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2002-yil 23-24-sonida chop etilgan suhbatda modernizm haqida o'z qarashlarini bayon etgan. Filologiya fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldoshev ham modern adabiyot haqida o'z fikrlarini bildirib, o'zining "Бадий тахлил асослари" kitobiga modern asarlar tahliliga bag'ishlangan alohida mavzu kiritgan. Shuningdek, filologiya fanlari nomzodi Zuhra Mamadaliyeva "Modernizm tushkunlik in'ikosimi?", adabiyotshunos olim va yozuvchi Tilavoldi Jo'rayev "Modernizm bizga begona emas, biroq u yagona yo'nalish emas" nomli maqolalarida modern adabiyot haqida o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Shuningdek, modern adabiyot xususida adabiyotshunos olimlarimiz Abdulla Ulug'ov, Bahodir Karimov, Umarali Normatov, Bahodir Karimov, Ulug'bek Hamdamlar ham o'z fikrlarini bildirishgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, modern adabiyot xususida ko'p marotaba so'z yuritilgan, ilmiy ishlar qilingan, ammo uni o'qitish metodikasi - bu yangi yo'nalish. Tadqiqot davomida mavzu yuzasidan "Rauf Parfi she'rlarida avtopsixologik lirika" nomli maqola tayyorlanib, universitetning Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan talabalar anjumaniga taqdim etilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Adabiyotshunoslikda o'rganilgan modernistik oqimning va aynan o'zbek modern she'riyatning ta'lim bosqichlarida o'qitilishi hamda uning metodikasini ishlab chiqish, o'qitishda turli interfaol metodlardan samarali foydalanish, bu orqali o'quvchilarni modern she'riyatga zerikarli lirika deb qarash emas, balki yangi yo'nalishdagi o'ziga xos lirika, shu bilan birgalikda sirlar tilsimi deb qarashi, bu tilsimini yechimi topish she'riyatdan estetik zavq

olish ekanligini ularning ongiga singdirish asosiy maqsad qilib olingan. O'quvchilar bu yo'nalishdagi she'rlarni o'qituvchi qistovi ostida emas, o'z xohishlari bilan o'qib tahlil qilishlariga erishilsa, tadqiqot ishining maqsadiga yetgan bo'lamiz.

**Tadqiqotning vazifalari.** Ushbu tadqiqot ishining o'z oldiga qo'ygan qator maqsadlari bo'lib, ular quyidagilar:

- maktab ta'limida modern she'rlarni o'qitishning ahamiyatini ochib berish;
- ta'lim jaroyida modern she'riyatga oid dastlabki bilimlarni berish va o'quvchilarni modern adabiyotdan xabardor qilish;
- o'quvchilarda modern she'rlarni tahlil qilishga oid ko'nikmalarni shakllantirish;
- tahlil jarayonida modern she'rlarning an'anaviy she'riyatga o'xshash umumiy va xususiy jihatlarini farqlashni o'rgatish;
- modern she'rlar tahliliga oid yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish;
- modern she'rlarni o'qitishda an'anaviy metodlar bilan birgalikda noan'anaviy interfaol metodlarni qo'llash.

**Ishning yangiligi.** Tadqiqotda ikki xil yo'nalishdagi yangilikning guvohi bo'lishimiz mumkin. Avvalo, modern she'riyat o'qitish metodikasining o'zi yangi bir yo'nalish deb qaraydigan bo'lsak, ta'limda qo'llanilayotgan an'anaviy hamda interfaol metodlarni modern she'rlarni o'qitish jarayoniga tatbiq etish yana bir yangilikdir. Shuningdek, tadqiqotda nazariya va amaliyot uyg'unligini ham ko'rishimiz mumkin, mavzuni o'tishdan oldingi va keyingi natijalarning tahlilii statistikasida bu hodisa yaqqol namoyon bo'ladi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, modernizmning dastlab Yevropada paydo bo'lishi, keyinchalik uning o'zbek adabiyotiga kirib kelishi, adabiyotshunosligimizda o'rganilishi, so'ngra ta'lim jarayoniga kirib kelishi, maktablarda o'qitilishi kabilar ishning dastlabki bobida o'z ifodasini topgan. Bunda adabiyotshunos olimlar, munaqqidlarning shu yo'nalishdagi maqolalari va izlanishlari o'rganildi hamda tadqiq etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa maktab ta'limida modern she'riyatni o'qitish metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishda o'z aksini topgan. Bu o'rinda dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Ishning nazariy asosini belgilashda yetuk metodist olimlar Qozoqboy Yo'ldoshev, Boqijon To'xliyev, Roza Niyazmetova kabi olimlarning ishlariga tayandik. *“Besh bosqich”* texnologiyasi, *“T chizma”* metodi, *“Ven diagrammasi”*, *“O'tkir zehn”*, *“Chaqmoq fikr”*, *“Xotira mashqi”*, *“O'zingizni sinab ko'ring”* kabi turli metod va usullardan, badiiy, qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning tuzilishi.** tadqiqot Kirish qism, uch bobni o'z ichiga olgan Asosiy qism, Xulosa qism, Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar qismidan iborat.

## **I bob. Modern adabiyotni o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari**

### **1.1. Ta’lim jarayonida modern she’riyatni o‘qitishning ahamiyati**

Ma’lumki, adabiyot uch yirik turga bo‘linadi: epik, lirik va dramatik tur. Adabiyot uchun bu uch tur alohida ahamiyatga ega va o‘quvchiga qalbiga, ongiga turli tomonlardan ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, epik asarlarda voqeylik, hikoyaviylik, tasvir ko‘lamining kengligi o‘quvchi tasavvurini oshirishga xizmat qilsa, lirik asarlar hissiyot jilvalarini o‘zida mujassam etgani bois kishilar ruhiyati ta’sir qiladi, qalbimiz qo‘ridagi hislarni uyg‘otishga xizmat qiladi. “She’r – tuyg‘uning suvrati. Shoir kamalakrang so‘zlari bilan his-tuyg‘u rasmini chizadi. Shoirning tuyg‘ulari ustiga zarrin libos yopib sahnaga chiqadi, raqsga tushadi. Hammasida talantli shoir – muazzam shaxsning yuragi aks etadi”<sup>4</sup>. Dramatik turning o‘ziga xosligi esa tasvirning ko‘z oldimizda gavdalanishi bilan xususiyatlanadi. Shunday ekan adabiyot ta’limida har uchala tur namunlari bilan o‘quvchilarni tanishtirmog‘imiz joiz. Adabiyot o‘qitish metodikasiga doir darslik va qo‘llanmalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda lirik asarlar bola ruhiyatining takomillashishi, dunyoqarashining kengayishi, og‘zaki va yozma nutqining o‘sishi, ijodkorlik qobiliyatining shakllanishi uchun alohida ahamiyat kasb etishi haqida aytib o‘tilgan. Chunki, lirika o‘zida hissiyot tug‘yonlarini aks ettirar ekan, kishilar qalbiga, ruhiga ta’sir qilmay qolmaydi. Lirik asarlarning o‘quvchi ruhiga ta’siri pedagog-metodist olimlar tomonidan turlicha izohlangan. Quyidagi shunday fikrlardan misollar keltiramiz. Qozoqboy Yo‘ldoshev: “Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg‘u va hissiyotga yo‘g‘rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Lirikada voqealar tasviri, xarakter mantig‘I emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg‘ular samimiyati muhimdir. Chinakam lirik she’r tinglovchi yo o‘quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional-axloqiy imkoniyatlarini uyg‘otadi, faoliyatga undaydi. Samimiy lirik so‘z hatto real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq

---

<sup>4</sup> Каримов Б. Рухият алифбоси. – Т.: Ф.Фулум. 2016. 99-бет.



ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma'lum".<sup>5</sup> S.Ahmedov: "Lirika ijodkor qalbi oniy bir tezlikda his etgan sezgining, mavjud muhitga estetik muhabbatning mevasidir. Shoir tashqi olamdan olgan taassurotlari natijasida vujudga kelgan fikrini his-tuyg'ulariga o'rab yana yuzaga chiqaradi, kitobxonda fikr tug'ilishiga sabab bo'ladi".<sup>6</sup> Shu sababli lirik asar mohiyatini ochib berish, uning emotsiyasini o'quvchi ruhiyatiga singdirish adabiyot o'qituvchisidan biroz mahorat talab qiladi. Lirik asarlar tahlilini o'rgatish epik yoki dramatik asarlar tahliliga nisbatan bir muncha jiddiyroq vazifadir. Buning uchun avvalo, shoir kechinmalarini tushuna olish, she'r ruhiyatiga tusha olish muhim ahamiyat kasb etadi. Metodik qo'llanmalarda lirik asarlarni o'qitishda asar matni bilan ishlash orqali matn mazmunini anglash muhim xususiyat ekanligi ta'kidlangan.

Har bir soha jadal rivojlanib borayotgan bir davrda adabiyotda ham turli yangi yo'nalish va oqimlar paydo bo'lib, adabiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib borayotganligi hech birimizga sir emas. Shu o'rinda shoir Erkin Vohidovning quyidagi so'zlarini eslaymiz: "She'riyatning mavzulari, ohanglari, ifoda uslublari har davrda ham o'ziga xos o'zgacha bo'ladi. Lekin bir narsa hamisha ustuvor: she'riyat inson qalbining holati ekani, uning quvonchi, muhabbati, nafrati, sog'inchi ifodasi ekani – abadiy"<sup>7</sup>. So'nggi yillarda badiiy adabiyotda "modern" atamasiga ko'p bora duch kelyapmiz, modern hikoya, modern she'riyat, modern qissa shular jumlasidandir. Modern adabiyot, asosan, adabiyotshunoslar, fan kishilari orasida kengroq mushohada qilinib, oddiy kitobxonlar tomonidan qabul qilinishi biroz mushkulroq bo'layotgan yo'nalishdir. Xuddi shuningdek, modern adabiyot haqida olib borilayotgan tadqiqotlar ham, ilmiy ijod namunalari ham ma'lum bir kishilar qatlamining qiziqishiga sazovar bo'ladi. Oddiy kitobxon kuchliroq tafakkurga, kengroq dunyoqarashga ega

---

<sup>5</sup> Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. doktori diss. – Toshkent: 1997. 235-bet

<sup>6</sup> Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o'rganish. Adabiyot o'qituvchilariga yordam. – T.: O'qituvchi, 1986. 8-bet

<sup>7</sup> Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Тошкент: 1987. 16-бет

boʻlmasa, modern adabiyot namunalari qabul qila olmasligi mumkin. Bugungi kun adabiyoti uchun dolzarb boʻlgan muammolardan biri ham modern adabiyot mohiyatini oddiy oʻquvchiga ham tushuntirib bera olishdir. Darhaqiqat, modernistik yoʻnalishda yaratilgan asarlar anʻanaviylikdan qochadi. Shu sabab ham bunday asarlarni har qanday inson ham oʻqiy olmaydi, oʻqiganda ham qiyinchilik bilan qabul qiladi. Modern ijod namunasini oʻqish oʻquvchidan alohida intellekt, kuchli ruhiy tayyorgarlik hamda keskin vaziyatli holatlarga tayyor turishni talab qiladi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yoʻldosh aytganidek, “modern adabiyotning oʻziga xosligi badiiy tasvirda muallif va oʻqirman qarashlarida uygʻunlik, yaqinlik boʻlishiga urinishdan voz kechishda namoyon boʻladi”<sup>8</sup>. Sababi shundaki, modern adabiyot muallifning ruhiyatidan kelib chiqqan oʻy-xayollar asosida shakllangan boʻlib, unda shodlik va qaygʻu, gʻam-tashvish va quvonch, baxtlilik va baxtsizlik hamma vaqt yonma-yon turadi. Xuddi shu ruhiyatni, kayfiyatni har bir oʻquvchi oʻz dunyoqarashidan kelib chiqib qabul qiladi va baholaydi. Bu oʻrinda muallif va oʻquvchi qarashlari toʻgʻri kelmasligi tabiiy holat.

Insonning badiiy asarni tushunish, uni idrok qilish, adabiy yoʻnalishlar haqidagi bilimlari, asosan, maktab taʼlimida shakllanadi va rivoj topadi. Taʼlimning dastlabgi boshqichlarida, yaʼni boshlangʻich sinflarda adabiyot nazariyasiga oid hech qanday maʼlumot berilmaydi, kichik-kichik hikoyalar hamda bolalar sheʼriyatidan kichik parchalar beriladi. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad, avvalo, oʻquvchining oʻqish tezligini oshirishga qaratilgan boʻlsa, undan soʻng esa matnni oʻqish bilan birgalikda uning mazmunini tushunishga undashdir. Xuddi shu davrdan boshlab yosh avlod ongida badiiy matn mazmunini anglashga boʻlgan harakat paydo boʻla boshlaydi. Sheʼriy asarlarni yodlash uchun oʻsha sheʼrda ishtirok etgan soʻzlarning maʼnosini bilish yod olish jarayonini tezlashtiruvchi samarali usuldir. Toʻgʻri, yosh bola sheʼrdagi soʻzlarning mazmunini tushunmasdan ham yod olishi mumkin, chunki ularning xotirasi ancha

---

<sup>8</sup> Йўлдошев Қ. Бадий таҳлил асослари. – Т.: Камалак. 2016. 385-бет

mustahkam, tez ilg'ab oluvchi xotira hisoblanadi. Lekin keyinchalik bolalarning chet (masalan, rus yoki ingliz) tillaridagi she'rlarni yod olishi anchayin mushkullik tug'diradi. Bu jarayon ham o'z-o'zidan badiiy matn mazmunini qanchalik tushunish bilan bog'liq.

Shunday ekan modern adabiyot kishini o'zidan zeriktirmasligi, o'zidan uzoqlashtirmasligi uchun, avvalo, bunday asarlarda asar mazmunini ochib beruvchi so'zlarning tag ma'nosini anglay olish muhim ahamiyatga ega. Sababi, modernistikada so'zlar ko'p o'rinlardan tag ma'noga ega bo'ladi va bu orqali nimagadir ishora qilinadi. Chunki modern adabiyot ijodkorning ruhiyati mahsuli ekan, shoirlar o'z xayollaridagi kechinmalarni to'g'ridan-to'g'ri she'rga ko'chirmasdan qandaydir timsollar yordamida fikrlarini bayon etishadi. Masalan, Rauf Parfining quyidagi misrasiga e'tiborimizni qaratsak:

Men kimnidir kutyapman mahzun,

Men kimgadir yig'lamog'im shart.

Tanholikla-la turibman o'zim,

Mening bilan birgina zulmat<sup>9</sup>.

Ushbu parchada ramziy ma'no tashuvchi sifatida "tanholik", "zulmat" so'zlarini misol tariqasida olishimiz mumkin. Shoir ijodida hamisha ustunlik qilib kelgan yolg'izlik motivini ushbu she'rda ham ko'rishimiz mumkin. Tanholik deganda atrofida odamlarning yo'qligi yoki yolg'izlikni tushunmasligimiz kerak. Shoir uchun haqiqiy tanholik bu – uning kechinmalarini o'zgarar tushuna olmasligi, uning qalbi tuygan tuyg'ularni o'zgarar tuya olmasligi, bir so'z bilan aytganda, uning qalbini anglay oladigan bir qalb topilmasligi haqiqiy tanholikdir. Ana shunday tanholikda turgan qahramonga faqatgina zulmat hamroh, zulmat ham zohiriy ma'nodagi nursizlik, qorong'ulik emas, balki yuqoridagi tanholik yuzaga keltirgan yo'qsizlikdir. Lekin shunday bo'lsa-da, lirik qahramon qalbini tushuna

---

<sup>9</sup> Рауф Парфи Сўнги видо. Тошкент – 2006. 34-бет

oladigan, yig‘laganda tinglay oladigan bir qalb kerak va qahramon hamon shunday insonni mahzunlikda kutmoqda. Modern she‘riyat tantanavorlikdan yiroq, u bo‘rttirib tasvirlashdan uzoq, ijodkor ruhiyatida kechayotgan holatni oshirmay-toshirmay ro‘y-rost bayon etadigan bir she‘riyatdir. Shuning uchun ham o‘quvchiga biroz zerikarli, biroz tushunarsiz tuyular, ehtimol.

Fikrimizcha, modern asarlar mohiyatini anglatishni maktab ta‘limidan boshlashimiz o‘rinlidir. Albatta, bu ta‘limning quyi bosqichida emas, asosan, yuqori sinflarda amalga oshirilsa, o‘rinli bo‘ladi. Chunki, modern she‘riyatda ko‘chma ma‘no tashuvchi istilohlarning ko‘p qo‘llanilishi kengroq tafakkur bilan birgalikda tarix faniga oid faktik bilimlarni ham talab qiladi. Agar o‘zbek modern she‘riyatining yaqqol ko‘zga ko‘ringan davri sifatida o‘tgan asrning 80-yillarini qabul qilsak, shu yillar va undan oldingi davr ijtimoiy-siyosiy muhitidan xabardorlik o‘quvchi uchun shoir bermoqchi bo‘lgan fikrni tezroq anglashiga olib keladi. Malumki, maktab ta‘limida fanlararo integratsiyani qo‘llash va bu orqali mavzuni tushuntirish yaxshi samara beradi. Shuning uchun 8-9-sinf o‘quvchilariga modern she‘rlarni tarixiy jarayon bilan bog‘lab tushuntirish o‘qituvchiga ham qiyinlik tug‘dirmaydi. Masalan, 11-sinf Adabiyot darsligida berilgan Rauf Parfning “Yurak” she‘ridan olingan parchaga e‘tiborimizni qaratsak:

Izn ber, hayqiray iymonim haqqi

Ko‘klarga termulib solayin uvvos.

Men faqat Turkiston atalgan yorqin

Bir butun yurtimni istayman, xolos<sup>10</sup>.

Ushbu barchada bir butun yurt – Turkiston haqida so‘z boradi. Agar kitobxon tarix fanidan yetarlicha bilimga ega bo‘lmasa, Turkiston qanday yurt, shoir nima uchun aynan shu yurtni istaydi, shu yurt uchun uvvos solishining sabablarini tushunishga qiynaladi. Modern adabiyotning maktab ta‘limidagi ahamiyati ham

---

<sup>10</sup> To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. II qism. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 83-bet

aynan shu o'rinda namoyon bo'ladi. Modern adabiyot o'z o'quvchisidan keng mushohada bilan bir qatorda yetarli bilimlarni ham talab etishini shu o'rinda ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda modern adabiyot namunasi maktab ta'limi uchun nimaga kerak, o'quvchilar uchun qiyinchiliklar tug'dirmaydi, degan savollar tug'ilishi ham tabiiy. Bunday savollarga javob bo'lishi uchun maktab ta'limida modern she'rlarning ahamiyatini sanab chiqishimiz o'rinlidir.

Avvalo, modern yo'nalishda yozilgan asarlar kishilar dunyoqarashini o'stirish, tafakkurini boyitish, chuqur mushohada yuritishga undash, hayot va go'zalliklardan iborat emasligini anglatish kabi vazifalarni bajarar ekan, biz buni aynan bolalarning o'smirligidanoq ularning ongiga singdirishimiz kerak. Ular uchun bunday she'rlarni tahlil qilish qiyinchilik tug'dirmaydimi, o'quvchilarni qiynab qo'ynaymizmi, degan savollardan qo'rqsak, maktab yoshidagi o'quvchilarni yengil hayotga o'rgatib, ular biroz mushkul bo'lgan ishlar uchun bosh qotirishni xohlamay qolishadi.

Ikkinchidan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, modern she'rlarni tushunish o'ziga xos bilimni talab etadi. Maktab o'quvchilari esa modern she'rlarni tahlil qilish jarayonida o'rgangan bilimlarini mustahkamlashadi, bilmagan narsalarini o'rganishadi. Shu sababli ham maktab ta'limida modern she'rlarning o'qitilishi bir tomondan o'quvchi dunyoqarashini boyitishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan fanlararo integratsiya yuzaga kelgandagi o'qitilish samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, modern she'riyat o'tgan asrning 80-yillarida paydo bo'lgan bo'lsa-da, hanuzgacha xalq orasida keng yoyilmasligiga asosiy sabablardan biri ham xalqning ko'pgina qismi adabiyotning bu yo'nalishidan xabarsiz ekanligidir. Agar ta'lim bosqichlariga, xususan, maktab ta'limida modern adabiyotdan namunalar berib borilsa, keyinchalik xalqning keng qismi bu yo'nalishdagi asarlardan boxabar bo'lar edi. Bugungi kunga qadar ta'lim bosqichlarida modern she'riyatdan umuman namuna berilmagan, deyish noxolislikdir. Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun nashr etilgan majmuada

modern yoʻnalishda ijod qilgan shoirlardan Faxriyorning “Kechinma” sheʼri hamda Ulugʻbek Hamdamning “Ijodkor qismati”, “Sanʼat”, “Munojot” kabi sheʼrlari oʻrin olgan. Lekin aynan maktab taʼlimida oʻz aksini topmagan edi. Umumtaʼlim maktablarining 7-sinf oʻquvchilari uchun yaratilgan darslikning muqaddimasida Rauf Parfining “Tong otmoqda” sheʼridan bir band tahlil qilingan, xolos. Bu esa oʻquvchida modern sheʼriyatga oid tushunchaning shakllanishi uchun kamlik qiladi. Bu holat 2018-yilda nashr etilgan umumtaʼlim maktablarining 11-sinf oʻquvchilari uchun tasdiqlanib nashr etilgan darslikda oʻz aksini topdi. Unda Rauf Parfi hayoti haqida maʼlumot berilib, “Tong otmoqda”, “Yomgʻir yogʻar”, “Yana qaytib keldim”, “Yurak” hamda “Yoz kechasi” kabi sheʼrlari tahlili bilan birgalikda keltirilgan.

Toʻrtinchidan, modern yoʻnalishdagi sheʼrlarni oʻqitishga alohida bir yoʻnalish sifatida qarashimiz lozim. Darslikda sheʼrlarning tahlili berilishi yaxshi, lekin oʻqituvchilarning dars davomida aynan shu tahlillarga tayinib qolishi oʻquvchilar oʻz fikrlarini erkin bayon eta olmasliklariga olib keladi. Shu sababli bu oʻrinda adabiyot oʻqituvchisidan keng fikrlilik, oʻquvchilar oʻz fikrlarini erkin bildira olishiga undaydigan turli metodlardan oʻrinli foydalanish va oʻz oʻrnida zukkolikni talab etadi. Sheʼr tahliliga oid fikrlardan xulosa olib, oʻquvchilar oʻrtasida fikrlar garmoniyasini yuzaga keltira olsagina, darsning maqsadiga erishilgan boʻladi.

Beshinchidan, maktab taʼlimida modern sheʼriyatni oʻqitishdan oldin, avvalo, oʻquvchi ongida modern adabiyot, xususan, modern sheʼriyatga oid tushunchalarni shakllantirishim lozim. Buning uchun darslikda faqat modern sheʼriyatdan namuna berish bilan cheklanmasdan modern adabiyot haqida qisqacha nazariy maʼlumotlarni ham kiritsak maqsadga muvofiq boʻlardi.

Methodist olimlarning lirik asarlarni oʻqitishga doir fikrlaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, sheʼrning mohiyatini anglash uchun hissiyotni ishga solishimiz lozim, shoir ruhiyatiga tusha olsak, sheʼrning tag gʻoyasini anglay olsak, undan estetik zavq olishimiz mumkin, aks holda maqsadimizga yeta olmaymiz. Adabiyot darslari koʻngil darslari sifatida shoirning asariga

singdirilgan hislarni o'quvchiga tuydirish, uni ruhan muvozanatdan chiqarish, o'zgan tuiyish va tuyganlarini so'z bilan ifodalab bera olishga yo'naltirishdan iboratdir. Bunday ishlar asar matni yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar ko'magida amalga oshiriladi. Lirik asarlarni o'qitishda ifodali o'qishning o'zni beqiyos. Modern she'rlar an'anaviy barmoq vaznida yozilgan she'rlardan farqli o'laroq qat'iy belgilangan qofiya tizimiga amal qilmaydi. Odatda, she'rda qofiya musiqiylikni yuzaga keltiradi. Bu jihatdan modern she'rda musiqiylik yo'q degan xulosaga kelishdan yiroqmiz. Aynan qofiya tizimiga qat'iy amal qilinmaganligi sababli ham modern she'zni ifodali o'qish muhim ahamiyatga ega. Ifodali o'qish she'zni tushunish darajasini oshirish xususiyatiga ega ekanligi metodist olimlarimiz nigohidan chetda qolmagan. Bu xususda Boqijon To'xliyev quyidagi fikrlarni bildirgan: "She'riy asarni anglash, undagi muallif ko'zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib yetish, she'r g'oyasining mag'zini chaqish uni uqishdan, yana-da aniqrog'i, ifodali o'qishdan boshlanadi"<sup>11</sup>. Ma'lumki, ifodali o'qish deganda ko'pchilik kishilar baland ovozda, tantanavor o'qishni tushunishadi, lekin Q.Yo'ldosheva bu borada o'z fikrlarini aytib o'tgan: "Ifodali o'qish – bu ijodkorning holatini tuyib, asarga muhrlangan ruhiy manzaralar bag'rida turib o'qiy bilish demakdir"<sup>12</sup>. Darhaqiqat, bu holat modern she'rlar ruhiyatiga aynan mos tushadi. Chunki modern she'rlarda tantanavorlik, ko'tarinkilik, umidbaxsh tuyg'ular o'rnida mahzunlik, tushkunlik kayfiyatlarini ko'proq ko'rishimiz mumkin. Tushkun kayfiyatda yozilgan she'rlarni aslo ko'tarinki ruhda o'qib bo'lmaydi. She'rning ruhiyatiga tusha olganimizda, shoir nima demoqchi ekanligini anglaganimizdagina she'zni ifodali o'qiy olamiz

Shuningdek, adabiyot ta'limida turli usullarda tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, matn matni bilan ishlash, muallif avtobiografiyasi bilan tanishish, asar yozilgan davr ijtimoiy muhiti bilan tanishish va boshqalar. Modern she'rlarni tahlil qilishda muallif avtobiografiyasi bilan tanishish

---

<sup>11</sup> To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi: (Oliy o'quv yurtlari filologiya yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma). – T.: Yangi asr avlodi, 2006. 80-bet

<sup>12</sup> Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. doktori diss. – Toshkent: 1997.

muhimdir. Chunki, modern she'rlar muallif ruhiyati in'ikosi bo'lganligi sababli muallifning avtobiografiyasi bu turkumdagi she'rlarni tahlil qilishda beqiyos o'ringa ega. Adabiyot ta'limida muallifning avtobiografiyasini o'rganishga doir alohida tahlil va yondashuv mavjud. Badiiy asar, ayniqsa she'riyatning kayfiyati va ruhiyatiga tushish uchun bu yondashuvning o'rni beqiyos.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kun o'quvchi har tomonlama salohiyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali hamda boy tafakkurga ega bo'lib yetishishi uchun maktabda o'qitilayotgan har bir fanning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiyot fani kishining hissiyoti, emotsiyasi va ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi sababli ta'limning har bir bosqichida o'qitiladi. Maktabning yuqori sinf o'quvchilari mustaqil hayotga qadam qo'yishi arafasida har sohada tushuncha va bilimga ega bo'lishlari talab etiladi. Bunda, avvalo, keng dunyoqarash shakllanmog'i lozim.

Modern she'rlar kishini chuqurroq o'ylashga undagani bois maktab ta'limida ahamiyatlidir. An'anaviy she'rlar tahlilidan ko'ra modern she'rlar tahlili o'quvchini chuqurroq o'ylashga chorlaydi.



## **1.2. Modern adabiyotning paydo bo'lishi va ta'lim jarayoniga kirib kelishi**

Ma'lumki, badiiy adabiyot antik davrlardan tortib bugungi kunga qadar bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Bir adabiy davrdan boshqa bir adabiy davrga o'tish o'ziga xos tarixiy sharoitni talab qilgan va har bir davr boshqa bir davrlarda kuzatilmaydigan xususiy belgilarga ega bo'lgan. Antik davr adabiyoti bir muncha sodda, kishilarning kundalik yumushlari bilan chegaralangan bo'lsa, o'rta asrlarning dastlabki davrlarida mol-mulk, yerga egalik qilish kabi tushunchalar shakllangan. Bu jarayonlar o'z-o'zidan badiiy adabiyotga ta'sir ko'rsatadi. Bu davrlarda insonlarning yagona muddaosi moddiy ehtiyojni qondirish bo'lgan bo'lsa, keying davrlarda insonlarning ichki olamini o'rganish, hissiy holatlar, ruhiy kechinmalarni bayon etish badiiy adabiyotda o'z aksini topa boshlagan. Xusussn, Yevropada Z.Freyd, F.Nitshe, A.Bergson, K.Yung kabi faylasuf va ruhshunoslar borliqni anglash, hayot mohiyatini tushunish, inson ruhiyatida kechayotgan holatlarni o'rganish kabi sohalarda turli izlanishlar olib bordilar. Bu jarayon adabiyotga ham ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

XIX asr oxirlariga qadar amalda bo'lgan adabiyotning romantizm oqimi o'z o'rnini modernizmga bo'shatib berdi. Modernizm dastlab Yevropa adabiyotida XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo'lgan. "Modern" so'zi fransuz tilida "eng yangi", "zamonaviy" degan ma'nolarni anglatgan. Aslida modernizm va modern atamalarini bir-biridan ajratib talqin qilish joizdir. Masalan, ularning ingliz tilida modernism (modernizm), modern movement (zamonaviy harakat), modern art (zamonaviy san'at), nemis tilida die Moderne (zamonaviylik), fransuz tilida modernisme (modernizm), modernite (zamonaviylik), moderne (zamonaviy, yangi), ispan tilida modernismo (zamonaviy), moderno (hozirgi, yangi) qabilidagi lug'aviy ma'nolari mavjud. Bundan chiqdi, modernizm – bu o'z qonun qoidalariga, aqida va tamoyillariga ega bo'lgan adabiy oqim, jarayon tushunchasini ifodalasa, modern – bu zamonaviy, yangicha adabiyot ma'nosini anglatadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, modernizm XX asr G'arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida kechgan adabiy-nazariy jarayon, ya'ni oqim deb tushunilsa,

modern har bir milliy adabiyotda sodir bo'luvchi zamonaviy, yangicha uslub va tamoyillarning majmuasidan iboratdir.

“Modernizmning vujudga kelishiga Shopengauyer va Nitsshening irrasional falsafasi, Bergsonning intuitivizmi, E. Gusselning fenomenologiyasi, Freyd va Yungning psixoanalizmi, Xaydegger, keyinroq Sartr va Kamyuning ekzistensializmi, Franfurkt maktabi ijtimoiy falsafasi g'oyalari asos bo'lib xizmat qildi”<sup>13</sup>. Modernizm ma'lum ijtimoiy davr mahsuli edi, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy va ma'naviy tushkunlik (bu dekadentlik atamasi bilan nomlanadi) adabiyot va san'atga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Modernizmning paydo bo'lishi bir tomondan jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga norozilik ifodasi edi, zero ular ijtimoiy o'zgarishlar, inqilob-u to'ntarishlar bilan insonni baxtli qilib bo'lmasligini anglab yetdilar; modernizm oqimining g'oyaviy asosini tashkil qiluvchi falsafa insonning ijtimoiy tomoniga emas, ruhi, qalbiga asosiy e'tiborni qaratdi.

Modernistlar o'zlaridan oldingi falsafani narsalar falsafasi bo'lgani uchun tanqid qiladilar, falsafaning diqqat markazida inson turishi lozim, degan fikrni ilgari suradilar, insonning asl hayoti real voqelikdagi emas, ko'ngildagi, ongdan tashqari, aql-idrokka bo'ysunmaydigan hayoti deb biladilar. Ayni paytda ular an'anaviy shakldan ham qoniqmaydilar; XIX asr realizmi va romantizmi uchun xos bo'lgan qolip tusini olgan shakl va usullarni takrorlash, naturalizmning voqelikdan passiv nusxa ko'chirishi, badiiy ijodda akademizmga qarshi isyon ko'tardilar. Ushbu yo'nalish tarafdorlari an'anaviy shakl hozirgi zamon voqeligini ko'rsatishga ojizlik qilib qolgan, deb hisoblaydilar. Ruh-qalb hayotini alohida qadrllovchi modernistlar, endi realistik usul va vositalar inson qalbining yashirin tublariga kirish, uni bor bo'yicha, ro'y-rost tasvirlash uchun ojizlik qilib qolgan, deb hisoblaydilar.

---

<sup>13</sup> Normatova Sh. Jahon adabiyoti. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: Cho'lpon. 2008. 58-bet

Modernizm XX asr G'arb adabiyoti va san'atining umumiy tavsifi tarzida bir necha o'lchovlarda mavjud bo'lib, bizningcha ularni quyidagi mazmunda xulosalash mumkin.

Birinchi, modernizm – bu zamonlar oralig'idagi tafovutni, “eskilik” va “yangilik” o'rtasidagi ixtiloflarni o'z g'oyaviy qarashlari bosh mezoni qilib olgan yuz yillikning ma'naviy qiyofasidir. Uning ortida “xudolar o'limi” (F.Nitsche), Yevropa xaritasini qayta tuzgan siyosiy inqiloblar va ilmiy kashfiyotlar, totalitar tuzumga asoslangan diktaturalar, xunrezli urushlar, informatsion portlashlar, sivilizatsiyaning koinotga chiqishi kabi global o'zgarishlar yotibdi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, uning ortida “markazsiz dunyo” (U.B.Yeyts)ning paydo bo'lishiga sabab, ob'ektiv borliq va tarixda chuqur ildiz otolmaganligi, mustahkam o'rnatilgan ololmaganligi, epistemologik dudmolligi, muayyan shaklga keltirilgan utopik (ilmga asoslanmagan, amalga oshmaydigan, xomxayol) orzu-umidlar va shaklsiz, noaniq antiutopik voqelik o'rtasidagi hal qilib bo'lmaydigan ziddiyatlarning mavjudligidadir.

Dastavval, bashariyatni ocharchilik va qashshoqlikni yengishga da'vat qilgan yigirmanchi asr vaqt o'tib o'zining insonparvarlik, yuksalishga intilish, jamoatchilikka tayanish, ilmiy-texnika taraqqiyotining cheksiz rivojlanishiga xayrixoh bo'lish kabi tamoyillariga qarshi turdi, amalda “eskirgan” bo'lib chiqdi. Ayni paytda, umuminsoniy tamoyillarning g'ayriinsoniy tuzum qonunlari oldida erksizligi, voqelikning hardamxayolligi, siyosiy yolg'on safsatalar, jamiyatning haddan tashqari himoyasizligi va hattoki be'maniligi ro'parasida tizilgan odamlarning fojiaiy yolg'izligi zamoni bo'lib qoldi.

XX asrning halokatga yuz tutishi muallifning “metafizikaga ishtiyoqini” kuchaytirgan, yakka tartibda ijod qilishga undagan bo'lsa, ushbu idealizmning dardu-g'amini ham shu alfozda belgilab berdi. Bunday muhitda “she'riyatga o'rin yo'qligi” (G.Adamovich)ni jahon urushlarida halok bo'lgan, totalitar tuzum tarafidan otib yuborilgan yoki surgun etilgan, aqldan ozib, o'z hayotiga suiqasd qilgan, alamzada holatda ijoddan voz kechgan qator qalamkashlarning fojiali

qismatidan, deb tushunmoq lozim bo‘ladi. Asrning shu kabi ruhini nemis faylasufi T.Adorno quyidagicha ta’riflangandi: “Osventsimdan keyin she’r yozish – bu badaviylik (varvarlik) hisoblanadi...” (Minima Moralia. Majruh hayot haqida o‘ylar, 1951).

Ikkinchidan, o‘tgan yigirmanchi yuz yillikda kechgan adabiy jarayon ko‘pgina raddiyalarga qaramasdan modernizmni inkor etib, bir chetga surib tashlagani yo‘q, aksincha, uni inkor qilish orqali yanada davom etishiga yordam berdi va o‘z doirasiga “modernizmdan tashqaridagi modernistlar” deya hisoblagan mualliflar – S.K`erkegor, H.Ibsen, G.Melvill, SH.Bodler, A.Rembo, S.Mallarme, F.Nitsshe, F.Dostoevskiy, G.Jeyms, A.Strindberg, J.Konrad va boshqalarning asarlarini og‘dirib oldi. Aksincha, ayrim buyuk nomlar (V.Skott, V. Gyugo, A.de Vin`i, CH.Dikkens, A. Tennison, G.Longfello)ning badiiy ijoddagi qadr-qimmatini pasaytirildi, boshqalari (G.Flober, E.Zolya, J.Elliot, U.Uitmen, P.Verlen) esa asos-isbotsiz jahon adabiyoti peshsahnasiga ko‘tarib qo‘yildi. Eng muhimi, modernizm XX asrning asosiy ijodiy kashfiyoti – sub’ektivlikni tadqiq qilishda davom etdi, va tezis-antitezis, “modernizm” – “kontrmodernizm” vositasida individual uslubning stilistik imkoniyatlarini amalga tatbiq qildi. Postmodernizm davriga kelib, u uslubdan ko‘ra ko‘proq sifat ko‘rinishiga ega bo‘ldi.

Uchinchidan, modernizm – aslida, bu bir-biri bilan kurash olib borgan, o‘zicha mustaqil harakat qilgan alohida modernistik uyushmalar, manifestlar, dasturlar (masalan, Lotin Amerikasida simbolizm o‘zicha modernizm nomini olgandi) majmuasidir. Masalan, modernizmning bir jabhasi avangardizmga, ya’ni lingvistika nuqtai nazaridan ilmiy tajribalar o‘tkazishga, san’atlar va diskurslar sinteziga, polistilistika (futurizm, dadaizm, syurrealizm, imajinizm, vortitsizm, frantsuz “antiromani”, Lotin Amerikasi “sehrli realizm”)ga moyillik bildirgan bo‘lsa, boshqa bir ko‘rinishi ekspressionizm tarafdorlarini barokko va romantizm an’analari bilan, ingliz-amerika modernizmini (J. Joys, V.Vulf, E.Paund, T.S.Elliot, U.Stivens) simbolizm bilan, J-P.Satr va A.Kamyu prozasini ekzistentsializm falsafasi bilan yaqinlashtirishga intildi. Bizningcha, faqat

modernizm va uning taraqqiyot kontekstida u inkor etgan “realizm”, “sotsialistik realizm” (A.Barbyus, L.Aragon, Y.R.Bexer, M.Andersen-Neks`yo, A.Zegers) va postmodernizm fenomenlari adekvat baholanishi mumkin xalos. Ayni paytda shuni ham ta’kidlash joizki, modernizm adabiyoti matni o‘zining stilistikasi jihatdan ham ko‘p qiyofalidir. Bir jihatdan, u XIX asr adabiy oqimlari (romantizm, naturalizm, simvolizm va hokazo) dan uzoqlashgan bo‘lsa, ikkinchidan ularga yangi urg‘u va ohanglar (J.Romen, J.Dyuamel`) olib kirdi, naturalistik, ya’ni voqelikni tasvirlashda maishiy tafsilotlar, ikr-chikrlar bilan cheklanib, umumlashmalardan qochadigan tasviriy uslub (J.-P.Sartr)ni singdirdi, zarurat tug‘ilganda esa, biroz to‘g‘rilab naturalizmni (R.Marten dyu Gar, J.Steynbek) yanada sayqallashtirdi. Shu taxlit traditsionalizm (an’anaviylik)ning turli ko‘rinishlari modernizm bilan olib borgan bahsida modernizmga zarardan ko‘ra ko‘proq foyda keltirdi, shuningdek, undagi strukturaviy o‘lchovlar: “klassika” va “romantika”, “realizm” va “abstraktsiya”, “milliy” va “baynalmilal”, “shimoliy” va “janubiy” kabi tamoyillarning mavjudligiga diqqat-e’tiborni qaratdi.

To‘rtinchidan, modernizm – bu J.Joys va G.Stayn, F.Kafka va G.Kayzer, L.Pirandello va YU.O’Nil, T.Mann va U.Folkner, A.Dyoblin va J.Dos Posos, B.Brext va E.Ionesko, X.L.Borxes va G.G.Markes, A.Myordok va G.Grasslarning modernizm ruhidagi matnlaridan iboratdir. Ularning barchasi modernizm nuqtayi nazaridan o‘ziga xos, boshqalarga o‘xshamaydigan, ularning har biri alohida yondashishni, modernizmning butun tipologiyasiga, terminologik va stilistik tavsiflariga aniqlik kiritishni taqozo etadi. J.Joys qalamiga mansub “Uliss” romani ham simvolizm, ham avangard, ham “yuksak modern”, ham “postmodern” qolipidagi asardek o‘qilishi mumkin. Shunga yarasha mazkur romanning adabiy jarayondagi mavqeyi va tutgan o‘rni unga hamohang o‘zgarib borishi ham muqarrardir.

Beshinchidan, modernizm – bu parallel ravishda mavjud bo‘lgan matnlarning polifoniyasi (ko‘povoziyligi)dir. Ushbu inkor etishlar va tasdiqlarning o‘ta

murakkabli maydoni noklassik bo‘lgan masofani hosil qiladi, o‘z makoniga oid chegaralarini doim aniqlab turuvchi qandaydir bir o‘ziga xos adabiy jarayondir. Uni shartli ravishda sub’ektivlikdan uzil-kesil ozod etuvchi, markazdan qochiradigan kuch, ya’ni girdibod bilan qiyoslash mumkin. Jamiyatning barqaror muvozanatdan chiqqanligi, undagi sub’ekt va ob’ektning bir-biriga mos kelmasligi, his-tuyg‘ular ta’sirida yashayotgan shunday ramziy faollikning dastlabki ko‘tarilib tushushi fransuz adabiyotining XIX asr oxiriga to‘g‘ri keladi. Aslida, milliy adabiyotlar nazdida mavjud bo‘la turib, ma’lum ma’noda ularning hal qiluvchi, muhim voqea va hodisalarini o‘zaro qorishtirib yuboradigan ushbu “to‘lqin” o‘zini goh 1910-yillar nemis ekspressinizmi, goh 1920-yillar ingliz-amerika modernizmi, goh 1930-1940-yillar fransuz ekzistentsializmi andozasidagi proza, goh 1950-yillar “absurd teatri” orqali namoyish qilib, 1960-yillarda Lotin Amerikasigacha yetib bordi-da, o‘sha yerda inqirozga yuz tutib, o‘z kuchini yo‘qotdi. Modernizm yo‘riqlarining “ko‘tarilishi” va “pasayishi” kabi holatlarni o‘zida jamlagan bu kabi inqilobiy harakatning davrlarga bo‘linishi o‘ta darajada shartlidir. Qolaversa, modernizm taxminan uch ijodiy muhit bilan bog‘liq holda kechdi. Bular: postsimvolizm va avangardizm (1910-1940-yillar); ekzistentsializm (1940-1960-yillar) va postmodernizm (1980-2000-yillar) dir. Ularning har birida o‘z tipologik belgilarning o‘zaro uyg‘un birikmasini, o‘z faollari va mushohada qiluvchilarini, oshkor va nooshkor “modernist”larini, “modernizm” zamondoshlari va “kontrmodernist”larini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

XX asr adabiyotida modernizmdan ustun turuvchi yana biror ijodiy oqim mavjudmidi, degan savolning bo‘lishi tabiiy. Bu savolga ijobiy yoki salbiy ma’noda javob topish osondek tuyulsada, fikrimizcha, modernizm adabiyotni o‘rganish doirasidan chiqib ketdi. Aslida, modernizmning o‘zi va uning qonun-qoidalari aniq kashf qilinmagan bir holatda XX asr qalamkashlarining qariyb barchasi u yoki bu taqlidda “modern kasali”ga muhtalo bo‘ldilar.

“Modernistik san’at jahon urushi sabab ijodkorlarning odatiy o‘zidan chiqarib yuborilgan tafakkuri, tushkun kayfiyati hamda umumiy ijtimoiy negizlarning tushunarsizligi aralashuvidan yuzaga kelgan.”<sup>14</sup> Darhaqiqat, modernistik yo‘nalishda yaratilgan asarlar an’anaviylikdan qochadi. Shu sabab ham bunday asarlarni har qanday inson ham o‘qiy olmaydi, o‘qiganda ham qiyinchilik bilan qabul qiladi. Modern ijod namunasi o‘qish o‘quvchidan alohida intellekt, kuchli ruhiy tayyorgarlik hamda keskin vaziyatli holatlarga tayyor turishni talab qiladi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldosh aytganidek, “modern adabiyotning o‘ziga xosligi badiiy tasvirda muallif va o‘qirman qarashlarida uyg‘unlik, yaqinlik bo‘lishiga urinishdan voz kechishda namoyon bo‘ladi”. Sababi shundaki, modern adabiyot muallifning ruhiyatidan kelib chiqqan o‘y-xayollar asosida shakllangan bo‘lib, unda shodlik va qayg‘u, g‘am-tashvish va quvonch, baxtlilik va baxtsizlik hamma vaqt yonma-yon turadi. Xuddi shu ruhiyatni, kayfiyatni har bir o‘quvchi o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib qabul qiladi va baholaydi. Bu o‘rinda muallif va o‘quvchi qarashlari to‘g‘ri kelmasligi tabiiy holat.

Adabiyotda modern oqimi paydo bo‘libdiki, u jahon xalqlari adabiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shunday ekan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan modernistik oqim sekin-astalik bilan o‘zbek adabiyotiga ham kirib keldi. Olimlarimiz turli davrlarda adabiyotdagi yangilikka o‘zbek ijodkorlari befarq bo‘lishmaganligini aytishsa-da, milliy adabiyotimizda modernizmning shakllanishi xususida asosli fikrlar mavjud. Xususan, adabiyotshunos olim Umarali Normatovning fikricha, o‘zbek adabiyotiga modernizm oqimi XX asr boshlaridayoq kirib kelgan. Cho‘lpon, Qodiriy, Fitrat, Botu, Oybek kabi ijodkorlar asarlarida G‘arb modernizmidan ta’sirlanganlikni sezishimiz mumkin. Filologiya fanlari nomzodi Muhayyo Yo‘ldosheva ham o‘z tadqiqotlarida adabiyotimizda modernizmning dastlabki ko‘rinishlari XX asr boshlaridayoq ko‘zga tashlanishini ta’kidlab o‘tgan. Ammo adabiyotshunos Muhammadjon

---

<sup>14</sup> Қ.Йўлдош М.Йўлдош Бадий таҳлил асослари. – Т.: “Камалак” 2016 йил, 383-бет

Xolbekov yuqorida fikrlarni inkor etgan holda milliy adabiyotimizda modern oqim XX asrning 80-yillaridan paydo bo'la boshlaganini aytib o'tgan. Ko'pgina olimlar o'zbek modern she'riyatining asoschisi sifatida Rauf Parfini e'tirof etishganligi barchamizga ma'lum. Shu o'rinda 2003-yilda nashrdan chiqqan "O'zbek modern she'riyati" nomli majmuaga diqqatimizni qaratsak, o'rinli bo'lar edi. Ushbu majmua Bahrom Ro'zimuhammad hamda Shermurod Subhon muallifligida, Rauf Parfi taqrizi ostida nashr etilgan. Majmua mualliflari so'zboshida o'zbek adabiyotidagi yangicha oqim XX asr 20-30-yillarida namoyon bo'lganligini ta'kidlab, misol tariqasida Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Oybeklarning ijodi bunga bunga yaqqol misol ekanligini aytib o'tishgan. To'plamda dastlab Abduvali Qutbiddin, keyin esa u bilan zamondosh va undan keyingi davrda ijod qilgan shoirlar ijodidan namunalar berilgan. Umumiy hisobda qaraydigan bo'lsak, majmuadan o'rin olgan aksariyat namunalar o'tgan asrning 80-yillari va undan keyingi yillarda yaratilgan she'rlardir. Demak, adabiyotshunoslarning o'zbek adabiyotida modernizmning shakllanishi XX asr boshlariga to'g'ri kelishi haqidagi fikrlari to'liq isbotini topmagan.

Ma'lumki, o'zbek adabiyotida modern yo'nalishda ijod qilgan shoirlar talaygina. Rauf Parfini bu yo'nalishning dastlabgi vakili deydigan bo'lsak, undan so'ng Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Ulug'bek Hamdam, Aziz Said, Jabbor Eshonqul, Jabbor Eshonqul, Tursun Ali kabi shoirlar ijodi barchaga tanish. Ayni paytda ko'p sonli o'quvchilariga ega modernistik ijodkor sifatida Ulug'bek Hamdam, Faxriyor, Tursun Ali, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro'zimuhammad hamda yosh shoir Jontemir Toshtemirovlarni sanab o'tishimiz o'rinlidir.

Modern she'riyatda yalovbardor sifatida Rauf Parfi o'zining alohida yo'nalishiga ega ijodkor sanaladi. Uning ijodida doimiy qonuniyatlarga bo'ysinmaslik, bir xillikdan qochish, ruhiy olamning ochiq tasviri, ba'zan esa o'tgan vaqelikni biroz mavhumlashtirgan holda tasvirlash kabi xususiyatlar ustunlik qiladi. Bunday she'rlar o'z o'quvchisidan anchayin zukkolikni talab



qiladi. Shoirning “Men kimnidir kutgayman mahzun” misrasi bilan boshlanuvchi she’riga diqqatimizni qaratsak:

Men kimnidir kutyapman mahzun,

Men kimgadir yig‘lamog‘im shart.

Tanholikla-la turibman o‘zim,

Mening bilan birgina zulmat.

Shoir ijodida hamisha ustunlik qilib kelgan yolg‘izlik motivini ushbu she’rda ham ko‘rishimiz mumkin. Ana shunday tanholikda turgan qahramonga faqatgina zulmat hamroh, uni eshitguvchi, uni tushunguvchi bir inson yo‘q, afsuski. Lekin shunday bo‘lsa-da, lirik qahramon qalbini tushuna oladigan, yig‘laganda tinglay oladigan bir qalb kerak va qahramon hamon shunday insonni mahzunlikda kutmoqda. Modern she’riyat tantanavorlikdan yiroq, u bo‘rttirib tasvirlashdan yiroq, ijodkor ruhiyatida kechayotgan holatni oshirmay-toshirmay ro‘y-rost bayon etadi. Shuning uchun ham o‘quvchiga biroz zerikarli, biroz tushunarsiz tuyular, ehtimol.

Abduvali Qutbiddin ham o‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos ijod yo‘liga ega ijodkorlardan biri hisoblanadi. Shoir ijodi o‘zbek modern she’riyatini bir pog‘ona yuksaltirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ijodkorning 1984-yilda yozilgan “Nahrlarda etagi yirtiq” misralari bilan boshlanuvchi she’rida abstrakt, o‘ta ramziylashtirilgan tasvirni ko‘rish mumkin. O‘quvchi she’rning badiiy-g‘oyaviy mag‘zini uchinchi banddagi birgina misra – “Muqannani sotgan xiyonat” orqali ilg‘ab oladi. Demak, she’r muayyan tarixiy voqelik haqida. Bu o‘rinda biz uchun muhimi, tarixiy voqelikning muayyan tasvirda, tasvir bo‘lganda ham modernizmga xos abstrakt yo‘sinda ifoda etilganidir. She’rni o‘qirkansiz, shoir tasvirlayotgan manzaralar bilan Muqanna qismatini uyg‘unlikda ko‘ra boshlaysiz. Birinchi bandda kuchli dovul, momaqaldiroq, chaqmoq tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchi bandda daryoning qoyaday ko‘tarilayotgan to‘lqinlarini ko‘rasiz. Ayni

damda, shoir kichik detallar bilan Muqanna qismatining xarakterli o‘rinlariga urg‘u berib o‘tadi: “Sapchiyotgan to‘lqin uchidan – Yana to‘rga Tushadi Baliq”. Shoir she’r matnida tarixiy voqelikka ishora qilsa-da, aslida, o‘z davri voqealariga yuzlanayotganini anglash qiyin emas.

O‘zbek modern she’riyatining rangtasvir bilan aloqalari Bahrom Ro‘zimuhammad ijodida yaqqol ko‘rinadi. Bahrom Ro‘zimuhammad o‘zining tasviriy lirikasida modernistik ifoda uslublaridan unumli foydalanadi. Aniqrog‘i, shoirga “o‘tish davri” uyg‘otgan kayfiyatni ifodalashda modernistik uslub juda qo‘l keladi. Shu ma’noda Bahrom Ro‘zimuhammadning tasviriy she’riyatida lirik qahramon ruhiy olamini, uning kayfiyatini ifodalash birinchi o‘rinda turadi.

Bahrom Ro‘zimuhammad she’riyatidagi tasvirlar modernizm oqimlarining manifestiga juda mos keladi. Shoir she’rlaridagi tasvirni modernist musavvirning muayyan kartinasi bilan bimalol taqqoslash mumkin. Bahrom Ro‘zimuhammad ijodini diqqat bilan kuzatar ekansiz, shoir ifodada modernizmning nazariy asoslariga tayanganiga shubha qilmaysiz. U o‘zining “Cho‘lpon – tong yulduzi demak” nomli kitobida san’atlarning o‘zaro yakdillikda talqin qilinishi, his etilishi, modern she’riyatni tushunishda asosiy kalit ekanini ta’kidlaydi. Bundan ang-lashiladiki, shoir modernizmning sintetik hodisa ekanini nazariy bilimlari evaziga yaxshi tushunadi, his qiladi. Uning tasviriy lirikasini modernizm-ning rassomchilikdagi turli oqimlari bilan qiyoslab, shoirning aksar asarlari she’riyat va rangtasvir o‘rtasidagi badiiy sintez asosida yaratilganiga guvoh bo‘lish mumkin:

Tong o‘rniga nimadir otibdi

bir emas juda ko‘p kunduzlar jimirlar

to‘rtburchak uchburchak kunduz va kunduzchalar

ba’zisi nim pushti ba’zisi jigarrang

ba’zisi tunde qop-qora

rangsiz ba'zisi...

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adabiyot sohasida qanday yangilik paydo bo'lmasin, u o'quvchi diqqatini tortmay qolmaydi. To'g'ri bu o'rinda adabiyotshunos va metodist olimlarimiz yetakchi o'rinda turashadi. Sababi, bu yangilikni oddiy kitobxon qabul qilishidan oldin adabiyotshunoslar uni fanga ma'lum qiladi, so'ng o'quvchiga hukmiga havola etiladi. Shunday ekan nafaqat adabiyot, balki umuman fanning barcha tarmoqlaridagi yangilik ta'lim bosqichlariga tatbiq etiladi, ayniqsa maktab ta'limiga. Adabiyotshunoslar fikrlaridan kelib chiqqan holda modern adabiyot namunalarining o'zbek adabiyotida paydo bo'lishi xususida ikki xil davr mavjud deb qaraydigan bo'lsak, ularning maktab ta'limidagi ahamiyati ham shunga muvofiq ikki xildir: birinchisi, agar o'zbek modern she'riyati XX asr boshlarida paydo bo'lgan, uning ilk namunasi jadidchilar ijodida namoyon bo'lgan, degan fikrni ma'qullasak, unda bu turdagi she'rlarning namunasi mustaqillik yillarida nashr etilgan yangi avlod darsliklarining dastlabki nusxalaridan o'rin olgan. Ikkinchi fikr, o'zbek modern she'riyati XX asr 80-yillairda shakllangan degan qarash bo'lib, bu fikrni ma'qullasak, unda bu turdagi she'rlardan namunalar 11-sinf adabiyot darsligidan (2018) o'rin olgan. Bizningcha, ikkinchi fikr asosliroq. Chunki XX asr boshlaridagi jadidchilar ijodida modernlik nafaqat g'oya, balki vazn almashishi bilan ham bog'liqdir, ya'ni bu davrda aruz vaznidan barmoq vazniga o'tish xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Shunday ekan, modern she'riyat shakllanib, o'z o'quvchisiga ega bo'lib borgani sari maktab ta'limida ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

## II bob. Modern she'riyatni o'qitish metodikasi

### 2.1. Modern she'riyatni o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar

Modern adabiyotni oddiy kitobxon uchun ham tushunarli bo'lishi uchun modern adabiyot haqida, uning mohiyati haqida ko'pgina adabiyotshunoslar tomonidan turli maqolalar va ilmiy ishlar e'lon qilingan. Jumladan, filologiya fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldoshev ham modern adabiyot haqida o'z fikrlarini bildirib, o'zining “Бадий тахлил асослари” kitobiga modern asarlar tahliliga bag'ishlangan alohida mavzu kiritgan. Shuningdek, filologiya fanlari nomzodi Zuhra Mamadaliyeva “Modernizm tushkunlik in'ikosimi?”, adabiyotshunos olim va yozuvchi Tilavoldi Jo'rayev “Modernz bizga begona emas, biroq u yagona yo'nalish emas” kabi maqolalari, Muhammadjon Xolbekovning “XX asr modern adabiyoti manzaralari” nomli kitobida modern adabiyot haqida o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Bu kabi ilmiy ishlar orqali modern adabiyot mazmunini anglashga doir tushunchalarga ega bo'lishimiz mumkin. Lekin modern adabiyotni tushunish uchun maxsus yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish bugungi kun adabiyotshunos va metodistlarining galdagi vazifasidir. Ta'im bosqichlarida hozirga qadar modern ijod namunasidan parchalar berilmas edi. Modern adabiyotni o'qitish metodikasiga doir manbalarning kamligi ham shundandir, ehtimol. Umumta'lim maktablarining 11-sinfi uchun tayyorlangan darslikda (2018-yil) o'zbek modern she'riyatining asoschilaridan biri bo'lmish shoir Rauf Parfi ijodining taqdim etilishi bu yo'nalishdagi asarlarni o'qish uchun maxsus tamoyil va yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Adabiyotshunos va metodist olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan tahlil tamoyillari asosida modern she'rlarni o'qitishga doir ba'zi tamoyillarni tavsiya etamiz. Quyida **assotsativ**, **avtopsixologik** va **integrativ** yondashuv tamoyillari asosida modern she'rlarni tahlil qilish va uning samaradorligini ko'rib chiqamiz.

Adabiyot ta'limida **assotsativ yondashuv** asosida modern she'rlarni o'qitish. Bunda, avvalo, assotsativ so'zining ma'nosiga aniqlik kiritishimiz lozim. Bu so'z ingliz tilidagi “*association*” so'zidan olingan bo'lib, birikish, qo'shilish, birikma

degan ma'nolarni anglatadi. Ma'lumki, o'zbek tilida assotsativ lug'at yaratish ustida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu lug'atning mazmuni shundan iboratki, ixtiyoriy bir so'z tanlanadi va bu so'zni eshitganda kishilar xayoliga kelgan so'zlar, ya'ni u bilan mazmunan yonma-yon yuradigan so'zlar lug'atga joylanadi.

Bu yondashuvning modern she'rlarni o'qitishdagi ahamiyati shundaki, modern she'rlar tahlilida muhim ahamiyat kasb etgan "chaqmoq so'z" topib olinadi va uni atrofidagi so'zlar assotsatsiyasi aniqlab chiqiladi. Bu orqali o'sha so'z ishtirok etgan misra mazmunini aniqlab olish yebgilloq kechadi. Buni modernistik shoir Rauf Parfining quyidagi misrasi misolida tahlil qilamiz:

Yulduzlarning achchiq nurlariga chirmashar,

Yular oyning namxush sochlarini

Falakka termulib qolgan ko'zlaring.

Ushbu misradagi *achchiq nur* birikmasiga diqqatimizni qaratamiz va *achchiq* so'zining assotsatsiyasini atrofdagi insonlar yordamida tuzishga harakat qilamiz. Ko'pchilik insonlar achchiq so'zini eshitganda, avvalo, bulg'or qalampirini eslaydi, shuningdek, bu so'z assotsatsiyasiga qizargan yuz, zahar, jahl chiqish, bemaza taom kabi so'z va birikmalarni qamrab olarkan. Assotsatsiyada biror bir so'z ijobiy ma'noga ega bo'lsa-da, zid ma'no ifodalaydi. *Nur* so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, bu so'z yorug'lik, ezgulik, samimiylik kabi ijobiy ma'nolarga ega. Lekin *achchiq nur* tarzida qo'llanilishi noodatiy holat. Chunki bu so'zlarning biri salbiy ma'no ifodalasa, yana biri ijobiy ma'no ifodalaydi. Mana shu o'rinda assotsatsiya yuzaga keladi. Endi bu yondashuv she'ri tahlilida qanchalik ahamiyatga ega, degan savolga javob topamiz. Nur so'zi garchi ijobiy ma'no kasb etsa-da, bu she'rda salbiy ma'noni ifodalaydi. Falakka termulib qolgan ko'zlar yulduzlarning achchiq nurlariga chirmashib turgan holat tasvirlangan. Shuning uchun ham misraning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda misradagi

soʻzlar oʻz lugʻaviy maʼnosidan biroz uzoqlashadi. Ayni shu nuqtada assotsatsiya yuzaga keladi.


Modernistik ijodkor Abduvali Qutbiddinning quyidagi misrasini ham assotsativ yondashuv asosida tahlil qilamiz:

Umid kapalagi koʻngildan uchdi.

Bilmasman, qayerga qoʻnar u...

Balki qoʻnar tili uzun olovga!

Ushbu misra modern sheʼriyatning yaqqol namunasi boʻlib, misradagi *umid kapalagi* hamda *tili uzun olov* birikmalarini tahlilga tortamiz. Odatda adabiyot darslarida kapalak, umid kabi soʻzlar ijobiy boʻyoqqa ega soʻzlar hisoblanadi. Olov soʻzining assotsatsiyasiga kuyish, barbod boʻlish, nobud boʻlish, dushman, yov kabi soʻzlarni kiritishimiz mumkin. Endi misrada bu ikki bir-biriga zid kelgan soʻzlarning misrada birgalikda kelishi assotsatsiyani yuzga keltiradi. Bu orqali sheʼr bandining umumiy mazmuni oson tushuniladi, yaʼni misrada tushkunlik, umidsizlikka tushish kabi maʼnolar anglashiladi.



Umumiy fikrga keladigan bo'lsak, assotsativ yondashuvda fikrlar garmoniyasi yuzaga keladi va bu modern she'rning tushunilishini osonlashtiradi. Misradagi so'zlar birgalikda umumiy bir mazmunga ega bo'ladi va bu mazmunning tushunilishini osonlashtiradi.

“Lirikada voqelik subyekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq obyektini emas, subyektini birlamchidir”.<sup>15</sup> Lirikada bevosita ijodkor ruhiyati bilan bog'liq bo'lganligi sababli o'quvchidan ham aynan o'sha ruhiyatga tusha olish, o'sha ruhiyatni his qila olishni talab etadi. Navbatdagi yondashuv **avtopsixologik yondashuv** bo'lib, bunda she'r mazmuni hamda muallifi ruhiyati bir nuqtaga birlashadi. Bu atamani izohini adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov quyidagicha keltirgan: “Shoir va lirik qahramon munosabatini asosga olgan holda biz lirik asarlarni ikkiga: avtopsixologik va ijroviy lirikaga ajratamiz. Avtopsixologik lirika deganda lirik qahramon bilan shoir shaxsiyati mos tushgan, ikkalasi bir-biriga yaqin bo'lgan she'rlar tushuniladi. Ya'ni avtopsixologik she'rlarda shoir o'z qalbiga murojaat qiladi, o'z-o'zini ifodalaydi. Agar avtopsixologik lirikaga mansublik uchun shoir shaxsiyati va lirik qahramon orasidagi yaqinlik (aynan moslik emas) kifoya deb qarasaq, u holda lirik asarlarning aksariyati avtopsixologik xarakterga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Shoir shaxsiyati bilan lirik qahramonning mos tushmasligi ochiq ko'rinib turgan she'rlarni ijroviy lirika (rus adabiyotshunosligida “ролевая лирика”) deb yuritamiz.”<sup>16</sup> Yuqorida aytib o'tilganidek, avtopsixologik lirikada lirik qahramon ruhiyati aynan muallif ruhiyatidan ko'chgan bo'ladi. Avtopsixologik yondashuvda she'rning umumiy mazmuni ruhiyat tasviriga oidmi yoki yo'qligini aniqlaymiz va bu orqali she'r tahlilini osonlashtiramiz. “Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon” she'ridagi fikrlar ham garchi Cho'lpon tilidan bayon etilsa-da, bu holatlar shoirning hayotida va xayolida kechgan fikrlar emasmi?

---

[<sup>15</sup> Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: “Akademnashr”, 2010. 152-bet]

[<sup>16</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “Xalq merosi”, 2004. 184-bet]

Ona tilim, sen ruhimning qanoti,  
Abut-turk nafasi, Oltoy chechagi.  
Xun davridan omon kelgan G'iroting,  
Qutlug' Enasoyning ezgu ertagi.

She'ning oxirigacha lirik qahramon kechinmalari va shoir xayoloti mutanosib kelganligini guvohi bo'lamiz.

Yana bir she'rga nazar tashlaymiz. "Lutfixonim. "Uyg'on bolam" she'ridan olingan ushbu bandga e'tiboringizni qarating:

Sengadir, jon bolam, mushkilot, g'avg'o,  
Uyg'on, uyg'on, deya ingraydi navo -  
Senga bu Vatandir, senga turkiy til.

Yuqoridagi she'r, bir qaraganda, lirik qahramon Lutfixonimning farzandiga murojaatidek tuyiladi. Lekin bu murojaat shoir xayolida kechgan o'ylar, qalbidagi og'riqli hayqiriqning ayni o'zidir. Bu murojaat orqali nafaqat ona o'z bolasini uyg'otgan holatni, balki butun bir kelgusi avlodni uyg'otish, uni ertangi mushkilotli, g'avg'oli kunlardan ogoh qilish holatini uqib olishimiz mumkin. Shunday bir Vatan, shunday ona til yosh avlod qo'lida qolar ekan, bunday avlodning hamisha ruhi, ma'naviyati uyg'oq bo'lishi kerak, degan chuqur ma'no singdirilgan bu she'rda.

"Lirik asar kompozitsiyasining asosiy tayanch nuqtasi yakunida bo'ladi, bu kichik hajmli lirik asarlarda, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi".<sup>17</sup> Yuqoridagi she'rda ham lirik qahramonning asl maqsadi, aytmoqchi bo'lgan gapi oxirgi bandda o'z ifodasini topgan. Shoir ko'nglidan kechgan tuyg'ularni Lutfixonim tilidan bayon qilinishi she'ning avtopsixologik xususiyatini ochib beradi.

Shoir Tursun Alining quyidagi misrasini ham avtopsixologik yondashuv asosida tahlil qilishimiz mumkin:

Tun. Kezinar Oy ko'kda tanho.  
Kun. Quyosh ham balqiydi yakka.  
Yolg'izlik ichinda yolg'izman.

---

[<sup>17</sup>Қ.Йўлдош М.Йўлдош Бадий таҳлил асослари. – Т.: "Камалак" 2016. 268-б



Ushbu misrada ham ijodkorning yolg'izligi lirik qahramon yolg'izligiga ko'chganligi tasvirlangan va bu tunda Oyning, kunduzi Quyoshning falakda yakka ekanligi bilan qiyoslanadi.

Avtopsixologik yondashuvning samaradorligi shundaki, bu usuldagi tahlil o'quvchining ruhiyatiga ta'sir etadi, emotsional-ekspressiv xususiyatga ega. Bunda o'quvchida inson ruhiyatini his etishni o'rganishga intiladi, tushunuvchanlik, sezuvchanlik kabi xususiyatlar shakllanadi.

Tavsiya etilayotgan uchinchi yondashuv integrative yondashuv bo'lib, bunda modern she'rlarni o'qitish jarayonida ularni boshqa an'naviy she'rlar bilan aloqadorligi hamda boshqa fanlar bilan yuzaga keladigan aloqadorlik aks etadi. Buni shoir Faxriyorning quyidagi she'ri misolida tahlil qilamiz:

Suvsoq soylar ilon kabi bilanglab,  
Ketib borar  
Suvloq yerlarga  
Bunda chanqamas quduqlar faqat  
Yozning chanqog'in ko'rib,  
Hijolatdan yerga kirib ketgan quduqlar  
Bahor desant tashlar bu yalanglikka  
Qoqigulning parashyutlarin  
Yig'ishtirib olishga ulgurmas shamol  
Borliq taslim bo'lar axiyri  
Bahorga.

Ushbu she'rda bir o'qishdayoq diqqatimizni jalb etadigan *soylarning ilon kabi bilanglashi, quduqning chaqnashi, hijolatdan yerga kirib ketgan quduqlar, bahorning desant tashlashi, qoqigulning parashyuti* kabi jumlar she'rning modern xususiyatga ega ekanligidan dalolatdir. Chunki, modern she'riyatda noodatiy tasvir unsurlaridan keng foydalaniladi. Bu she'rni tahlil qilish

mobaynida o'quvchidan biologiya va harbiy sohaga oid bilimlar talab etiladi. Qoqigulning yaproqlari parashyutga qiyoslanishi uchun bola qoqigul nimaligini bilishi, uning tashqi ko'rinishini yaxshi eslab qolgan bo'lishi kerak. Bu o'z-o'zidan botanika faniga oid bilimlar mahsuli natijasida yuzaga keladi.

Integrativ yondashuv bugungi kun adabiyot ta'limida sinovdan o'tkazilgan hamda samarali natijalar bergan. Shu sababli ham modern she'rlarni o'qitishda bu yondashuvdan foydalanish yaxshi samara beradi degan fikrdamiz.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida tavsiya etilgan yondashuvlar adabiyot ta'limida sinovdan o'tkazilgan, lekin aynan modern she'rlarni o'qitishda qo'llanmagan. Bu yondashuvlardan an'anaviy va noan'anaviy darslarni tashkil etish, o'quvchilarni turli xil tanlovlar, fan olimpiadalari hamda bilimlar bellashuviga tayyorlash, shuningdek, sinfdan tashqari o'qish, mustaqil ta'lim jarayonlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'quvchini mustaqil fikrlashga undash, o'qituvchi fikriga tayanib qomasdan shaxsiy fikrlarini dadil ayta olish qobiliyatini shakllantirish bugungi kun metodikasining asosiy talabidir.

## 2.2. Modern she'rlarni noan'anaviy usullarda o'qitish

Ma'lumki, zamonaviy adabiyot ta'limi an'anaviylik uzoqlashishga harakat qilmoqda. Chunki, texnika va texnologiya rivojlanib borayotgan bir zamonda bolalarning kitob o'qishga, badiiy asar mutoalasiga bo'lgan qiziqishini oshirish adabiyot o'qituvchisidan alohida mahoratni talab etadi. Shu sababli biz ushbu bobda modern she'rlarni noan'anaviy usullarda o'qitishga doir ba'zi tavsiyalarni berib o'tmoqchimiz. Modern adabiyot an'anaviy adabiyotga nisbatan biroz murakkab soha ekanligi bois bu mavzudagi darslarni noan'anaviy usullarda olib boorish yaxshiroq samara beradi. Avvalo, noan'anaviy dars haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lsak. "Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari:

- a) o'quvchiga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- b) o'quvchini fikrini bir nuqtaga jamlash;
- d) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlariga to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- e) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgata olish va boshqalar"<sup>18</sup>.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda turli o'yinlar va texnologiyalardan foydalanish o'rinlidir. Bu - dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini oshirishga xizmat qiladi. Endi texnologiya so'zining ma'nosiga aniqlik kiritib olamiz. "Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - san'at, hunar va "logos" (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi.

O'qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U quproq xususiy metodika bilan birjinslidir. PT esa ma'lumot texnologiyasini

---

<sup>18</sup> Suyunova H., Barotova M. O'zbek adabiyotini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari fanidan ma'ruzalar matni. – Navoiy. 2008. 19-bet

joriy etish taktikasini ifodalaydi va “o`qituvchi - pedagogik jarayon - o`quvchi (talaba)” funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida ko`riladi”<sup>19</sup>.

Modern she`riyatni o`qitishda “**Besh qadam**” nomli texnologiyani ishlab chiqdik va hozir uning qanday qo`llanilishini ko`rib chiqamiz. Bu texnologiya nomidan ko`rinib turganidek besh bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: **Ma`lumot berish**

2-bosqich: **Yaqqol fikr**

3-bosqich: **Namuna keltirish**

4-bosqich: **Mustaqil tahlil**

5-bosqich: **Farqlash**

**Ma`lumot berish** bosqichida o`quvchi tomonidan modern she`r nima, uning qanday o`ziga xos xususiyatlari borligi haqida o`qituvchi tomonidan ma`lumot beriladi. O`quvchilarda modern she`riyatga oid dastlabki bilimlar shakllantiriladi. Modern she`rlardagi tasvirning favqulotda namoyon bo`lishi, obyektning mavhumligi, hodisalarning kutilmaganligi kabi xususiyatlar o`ziga xos jihatlardir. O`qituvchi tomonidan shu kabi she`r tahlili uchun zarur bo`lgan ma`lumotlar berib o`tiladi.

**Yaqqol fikr** bosqichida modernistik yo`nalishdagi she`rni bir o`qigandayoq tez diqqatni tortadigan so`zlar saralab olinadi va bu so`zlarning she`r umumiy mazmunini ochib berishdagi ahamiyati aytib o`tiladi. Masalan, Faxriyor ijodida quyidagi satrlar bor:

“Imlo lug`ati”day yolg`izlik,

aruz kabi bir rustamlaka.

Qishki darsxt kabi holsizlik,

---

<sup>19</sup> Suyunova H., Barotova M. O`zbek adabiyotini o`qitishning zamonaviy texnologiyalari fanidan ma`ruzalar matni. – Navoiy. 2008. 5-bet

she'rsizlikday taqir mamlakat.

Bu misradagi yolg'izlikning imlo lug'atiga, rustamlakaning aruz vazniga, holsizlikning qishki daraxtga, mamlakatning she'rsizlikka qiyoslanish holati o'qituvchi tomonidan izohlanadi. Shunda she'rning modernistik kayfiyatiga oydinlik kiritiladi.

**Namuna** bosqichida biror bir modern yo'nalishdagi she'r boshdan oxirigacha o'qituvchi tomonidan tahlilga tortiladi, bunda o'quvchilar o'qituvchi diqqatni aynan qaysi nuqtalarga qaratganligini kuzatib borishadi.

**Mustaqil tahlil** bosqichida o'quvchilarga modern she'rlardan namunalar beriladi va ular o'qituvchi ishtirokisiz she'rlarni tahlil qilishlari kerak bo'ladi:

U yuvib oladi gunohlarini

Onasining ko'zyoshi bilan...

\*

Suyak surar...taqdir ham.

\*

So'nggi yaproq kabi osilib turar

Vujudda yurak – yupun umid

\*

Ko'ngil bu kecha ham uyda yotmadi.

Shu kabi modern she'rlar mustaqil tahlilga tortiladi.

**Farqlash** bosqichida esa biror bir mavzudagi she'rlar: biri an'anaviy barmoq vaznidagi she'r, biri modern yo'nalishdagi she'r o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi va ular har ikkalasidagi tasvir obyektini farqlashi bo'ladi.

Ushbu bob yuzasidan yakuniy xulosaga keladigan bo'lsak, bu bob modern she'riyat metodologiyasining o'ziga xos ko'rinishiga bag'ishlangan. Bobning dastlabki qismida modern she'riyatni o'qitishning o'ziga xos yondashuvlari sanab o'tilgan bo'lsa, keyingi qismda modern she'riyatni o'qitishga doir "Besh qadam" deb nomlangan texnologiya tavsifini o'z ichiga olgan.

Tavsiya etilgan yondashuv bugungi kungacha bo'lgan metodologiyada keng qo'llanilib kelingan, ammo modern she'rlar tahliliga tatbiq etilmagan edi. Bizning ishimiz, ushbu yondashuvlarni modern she'rlar tahliliga yo'naltirdik va turli ko'rinishlardagi dars turlari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llashni tavsiya etamiz.

Taklif etilgan "Besh qadam" texnologiyasi modern she'rlarni o'qitish va tahlil etishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

### **III bob. BMIning amaliyotga tatbiqi**

#### **3.1. Ta'lim jaroyinida Rauf Parfi ijodini o'rganish**

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida Rauf Parfi she'rlariga qiziqish bir muncha baland edi. Maktab darsliklarida (7-sinfda) shoir tarjima holining o'ziga xos tarzda "xos insho" tarzida berilgani ma'lum edi. Lekin o'tgan o'n to'qqiz yil davomida shoir ijodiga munosabat goh salbiy, goh ijobiy tomonga o'zgarib keldi va an'anaviy ravishda uning sof modernistik she'rlari emas, aksincha barmoq vaznidagi bir muncha an'anaviyror she'rlari berildi. Masalan, shoirning "Turkiston", "Abdullajon marsiyasi", "Tong otmoqda", "Yomg'ir yog'ar" va boshqa she'rlari berib kelingan. Qayd etilgan ushbu she'rlarda she'rlarning ma'no mohiyati maktab o'quvchisining yoshini hisobga olib berilgan. Shu boisdan ularni tushunish unchalik murakkablik tug'dirmaydi. Darslik mualliflari garchand modern she'riyatning xos xususiyatlari haqida ixchamgina ma'lumot berib o'tishgan bo'lsa-da, lekin asosiy masala mavhumligicha qolyapti, ya'ni hozirgi darsliklarda modern she'r tabiatini yaqqol tasavvur qildiradigan materiallar yetarlicha emas.

Har qanday ilmiy tadqiqot amaliyotga tatbiq etilmas ekan, uning ahamiyati va qanchalik muhimligi noma'lumligicha qolaveradi. Shunday ekan biz ham bu tadqiqotimizni bevosita amaliyot bilan bog'lashga harakat qildik. Bunda bizga o'quv pedagogik amaliyoti qo'l keldi. Ikki oy davomida o'quv pedagogik amaliyotni Yakkasaroy tumanidagi 319-umumiy o'rta ta'lim maktabida olib bordik. Maktab ta'limining 11-sinfida Rauf Parfi hayoti va ijodining o'rganilishi tadqiqotimiz uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi.

### 3.2. Tajriba-sinov materiallari (ochiq dars ishlanmasi, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, tajriba-sinov tahlili)

Maktabda Rauf Parfi hayoti va ijodi mavzusi yuzasidan ochiq dars tashkil etdik. Quyidagi ushbu ochiq darsimizga taqdim etilgan materiallarni havola etamiz:

## Ochiq dars ishlanmasi

**Sana:** 23.02.2019

**Sinf:** 11- "A"

**Fan:** adabiyot

**Mavzu:** Shoirning "Tong otmoqda", "Yomg'ir yog'ar", "Yoz kechasi", "Yana qaytib keldim", "Yurak" she'rlari talqini

#### Darsning texnologik xaritasi

<b>Darsing maqsadi:</b>	<b>Ta'limiy maqsad:</b> o'quvchilarga modern she'r mohiyatini anglatish va bu turdagi she'rlarning tahlili bilan tanishtirish <b>Tarbiyaviy maqsad:</b> yangi yo'nalishdagi she'rlardagi didaktik maqsadni aniqlashni o'rgatish <b>Rivojlantiruvchi maqsad:</b> o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, tafakkur va idrok qilish qilish, hissiy va ruhiy tushunish tushunish hamda tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.
<b>Darsning vazifalari:</b>	- modern adabiyot haqida umumiy tushuncha berish; - modern she'rlarning an'anaviy she'rlardan farqli tomonlarini o'rgatish; - she'rlarda ramziy ma'no tashuvchi timsollar bilan tanishish.
<b>Kompetensiya:</b>	<b>Lingvistik kompetensiya:</b> fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish, matnda tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi, so'z va gaplarni bog'lagan holda fikrni aniq va ravon yozma ravishda bayon qila oladi. <b>Milliy va umummadaniy kompetensiya:</b> Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiynish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish; <b>Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:</b> jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish; <b>Kommunikativ kompetensiya:</b> ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida



	<p>o'zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga rioya qiladi, hamkorlikda va jamoada samarali ishlay olish;</p> <p><b>Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:</b> mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish;</p> <p><b>O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi:</b> doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual jihatdan rivojlantirib borish, kamolotga intilish hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish;</p>	
<b>O'quv jarayoni ning mazmu ni</b>	<p>Modern she'rni tahlil qilib, ular yuzasidan o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni hosil qilish;</p>	
<b>O'quv jarayoni ni amalga oshirish texnolog iyasi</b>	<p><b>Dars turi:</b> o'quvchilarning yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi;</p> <p><b>Dars usuli:</b> noan'anaviy</p> <p><b>Dars metodi:</b> savol-javob, "Tushunchalar izohi", "Eng chiroyli jumla", "O'tkir zehn"</p> <p><b>Vosita:</b> kompyuter, slayd, yozuv taxtasi, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurol, Rauf Parfining "Sabr daraxti", "So'nggi vido" kitoblari</p> <p><b>Nazorat turi:</b> savol-javob, interfaol metodlar</p> <p><b>Baholash:</b> 5 ballik tizim asosida</p>	
<b>Darsda n kutilayotgan natija:</b>	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- modern adabiyot haqida o'quvchilar ongida tushuncha hosil qilish;</li> <li>- modern she'r tahlilidagi e'tiborga moli jihatlarni o'rgatish</li> <li>- O'quvchilar faolligini oshirish;</li> <li>- O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqishni uyg'otish;</li> <li>- Darsda imkon qadar ko'proq o'quvchilarni baholashi;</li> <li>- O'quvchilarni modern she'riyatga qiziqishini oshirish va ularda kitobxonlik salohiyatini shakllantirish;</li> <li>- O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish.</li> </ul>	<p><b>O'quvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- modern adabiyot haqida tushunchaga ega bo'lish;</li> <li>- modern she'r mohiyatini anglab yetish;</li> <li>- modern she'r tahlili tamoyillariga oid bilimlarga ega bo'lish;</li> <li>- modern she'r mohiyati yuzasidan berilgan savollarga javob bera olish va topshiriqlarni to'liq va to'g'ri bajarish;</li> <li>- modern she'rlardan kerakli didaktik g'oya olish;</li> <li>- olgan bilimlarini kundalik vaziyatlarda qo'llay oladi.</li> </ul>

### Darsning blok sxemasi:

Dars bosqichlari	Mazmuni	Usullar	Vaqt
Tashkiliy qism	Salomlashish, darsning borishi haqida ma'lumot	Savol-javob, Blitz so'rov	5 daq
O'tilganlarni takrorlash	Savol-javob, tarqatma savollar beriladi, o'tilgan mavzular bo'yicha ma'lumotlar yodga olinadi,	Suhbat, savol-javob, "Ochiq kvadrat" metodi,	8 daq
Yangi mavzu ustida ishlash	Modern she'rlarni tahlil qilishda e'tiborli jihatlarni ajratib olishni o'rgatish	Tarqatma material va ko'rgazmali qurol yordamida ishlash	17 daq
Yangi mavzuni mustahkamlash	She'rlarni tahlil qilish, o'quvchilarni mustaqil tahlilga o'rgatish	Savol-javob, "Tushunchlar izohi", "Eng chiroyli jumla", "O'tkir zehn"	10 daq
Uyga vazifa	O'quvchilarni rag'batlantiradi, mavzuni yakunlaydi, uyga vazifa beriladi	Rag'batlantirish, baholash, tahlil qilingan she'rlardan birortasini yod olish	5 daq

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism: (5 daqiqa)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni aniqlaydi, o'quvchilarning va xonaning darsga hozirligini tekshiradi. Bugungi hafta kuni va sana bilan bog'liq ma'lumotlarni aytib o'tadi. So'ng bugungi darsda o'quvchilar uch guruhga ajratiladi. O'quvchilar diqqatini jalb qilish maqsadida kun hikmati sifatida Abu Ali Ibn Sinoning quyidagi jumlasini tahlil qilamiz: "Chala ilm sohibi bo'lgandan, ilmsizlik afzalroqdir"

**O'qituvchi:** Qadrlı o'quvchilar! Bugungi mavzuyimiz anchayin diqqatni jalb qilishga chorlaydi, har bir ma'lumotni nazardan chetda qoldirmaslikka undaydi, shu sababli darsga e'tiborli o'tirishingizni iltimos qilgan bo'lardim.

## V. O‘tilganlarni takrorlash: (8 daqiqa)

O‘tilgan mavzuni takrorlash maqsadida Rauf Parfi va unda oldin hayoti va ijodi o‘rganilgan ijodkorlar haqida savol-javob qilib olamiz. Har bir o‘quvchiga alohida savollar beriladi:

1. Rauf Parfi tarjimai holini yana boshqa dalillar bilan to‘ldirishga harakat qiling.
2. Shoir she‘rlarining o‘ziga xosligi va milliy xususiyatlariga e‘tibor bering.
3. Siz tong otishini kuzatganmisiz? Sizning kuzatuvingiz bilan shoir she‘rda tasvirlagan tong manzarasini o‘zaro qiyoslang. Bu borada shoir mahorati haqida nima deya olasiz?
4. Rauf Parfi she‘rlarida qanday badiiy san’atlar qo‘llangan?
5. Shoir she‘rlarida tabiat lirikasining o‘rni va ifoda tarzini misollar asosida tushuntiring.
6. She‘rlardagi inson ruhiy holatlari ifoda qilingan nuqtalarni ajratib ko‘rsating.
7. Rauf Parfi tasavvuridagi ona obraziga tavsif bering.
8. «Shahlo ko‘zli mening targ‘ilim» deganda nimani tushunasiz?
9. «Ajoyib diyorsan, qalbim, na chora Shodlik va hasratning maskani sanda» misrasida qanday tuyg‘ular ifodalangan?
10. «Yurak» she‘ridagi shoirning murojaatlari sababini izohlang.
11. Erkin Vohidov ijodiga qisqacha tavsif bering.
12. «Ruhlar isyoni» dostoni qanday tarixiy haqiqatga bag‘ishlangan? Uning yozilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
13. Dostonning to‘liq matnini o‘qing, rivoyatlarga munosabat bildiring. Ularning asar mazmun-mohiyatiga ta’siri haqida fikr yuriting.
14. Hind xalqi qachon mustaqillikka erishgan? Tarix darsida olgan bilimlaringizga tayanib javob bering.
15. Dostondagi Nazrul Islom siymosiga tavsif bering. Uning qaysi sifatlarini qadrlaysiz?
16. Dostonning «Isyon qo‘shig‘i», «G‘alayon», «Tutqunlikda», «Ozodlik» sarlavhasi ostida berilgan matnlarini kichik guruhlarda muhokama qiling va

taqdimot o‘tkazing.

17. Doston nima uchun «Ruhlar isyoni» deb nomlangani borasida o‘zaro fikr almashing.

18. Dostondan olgan taassurotlaringizni ijodiy yondashgan holda qisqacha yozing.

19. Shoir «Inson» qasidasida qanday qarashlarini tasvirlaydi. Shoir qarashlarini matnga asoslangan holda izohlang.

20. «Yaxshidur achchiq haqiqat» she’rini izohlang.

21. Cho‘lpon ijodi va uning nasriy asarlariga qisqacha izoh bering.

22. «Kecha va kunduz» romanida qaysi davr voqealari bayon qilinadi?

23. Cho‘lpon ilk bahorni qanday tasvirlaydi? Adibning badiiy mahoratiga baho bering.

24. Zebi tarbiya topgan oilaviy muhitni tavsiflang.

25. Razzoq so‘fi tabiatiga xos jihatlar qanday obrazli ifodalar bilan tasvirlangan?

26. Zebining ota-onasiga xos bo‘lgan sifatlarni o‘zaro qiyoslang. Fikrlaringizni matndan misollar keltirib izohlang.


27. Asardagi Enaxon obrazini tavsiflang.

28. O‘lmasxonning ko‘kdagi oyga qarab, yerdagi «oyni» o‘ylashini qanday tushundingiz, fikr bildiring.

29. Zebining san’atga ixlosini qanday baholaysiz?

30. Saltanat bilan Zebi munosabatlarini izohlang.

Ushbu savollarga tezkorlik bilan javob berasiz hamda **“Ochiq kvadrat”**ni kerakli ma’lumotlar bilan to‘ldirasiz



O‘tilgan mavzuni takrorlash mobaynida tarix faniga oid bilimlaringizni ham mustahkamlab oldingiz.

## II. Yangi mavzu bayoni: (17 daqiqa)

Aziz o‘quvchilar o‘tilgan mavzuni ham mustahkamlab oldik. Bugungi mavzuyimiz Rauf Parfi she’rlari tahlili. Ma’lumki, Rauf Parfi deganda, avvalo, o‘zbek modern she’riyati xayolimizga keladi. Modern she’riyat o‘zi nima? Bu yo‘nalishda yozilgan she’rlarning an’anaviy she’rlardan qanday farqi bor? Modern adabiyot qanday adabiyot? Kabi savollar sizni qiziqtirishi tabiiy. Shu savollaringizga javob topishingiz uchun hozir men sizlarga modern adabiyot, modern she’riyatning o‘ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha ma’lumot berib o‘taman.

Modernistik yo‘nalishda yaratilgan asarlar an’anaviylikdan qochadi. Shu sabab ham bunday asarlarni har qanday inson ham o‘qiy olmaydi, o‘qiganda ham qiyinchilik bilan qabul qiladi. Modern ijod namunasini o‘qish o‘quvchidan alohida intellekt, kuchli ruhiy tayyorgarlik hamda keskin vaziyatli holatlarga tayyor turishni talab qiladi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldosh aytganidek,

“modern adabiyotning o‘ziga xosligi badiiy tasvirda muallif va o‘qirman qarashlarida uyg‘unlik, yaqinlik bo‘lishiga urinishdan voz kechishda namoyon bo‘ladi”. Sababi shundaki, modern adabiyot muallifning ruhiyatidan kelib chiqqan o‘y-xayollar asosida shakllangan bo‘lib, unda shodlik va qayg‘u, g‘am-tashvish va quvonch, baxtlilik va baxtsizlik hamma vaqt yonma-yon turadi. Xuddi shu ruhiyatni, kayfiyatni har bir o‘quvchi o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib qabul qiladi va baholaydi. Bu o‘rinda muallif va o‘quvchi qarashlari to‘g‘ri kelmasligi tabiiy holat.

Modernizm dastlab Yevropa adabiyotida XIX asr oxiri XX asar boshlarida paydo bo‘lgan. “Modern” so‘zi fransuz tilida “eng yangi”, “zamonaviy” degan ma‘nolarni anglatgan. Modernistlar o‘zlaridan oldingi falsafani narsalar falsafasi bo‘lgani uchun tanqid qiladilar, falsafaning diqqat markazida inson turishi lozim, degan fikrni ilgari suradilar, insonning asl hayoti real voqelikdagi emas, ko‘ngildagi, ongdan tashqari, aql-idrokka bo‘ysunmaydigan hayoti deb biladilar. Ayni paytda ular an’anaviy shakldan ham qoniqmaydilar; XIX asr realizmi va romantizmi uchun xos bo‘lgan qolip tusini olgan shakl va usullarni takrorlash, naturalizmning voqelikdan passiv nusxa ko‘chirishi, badiiy ijodda akademizmga qarshi isyon ko‘tardilar. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari an’anaviy shakl hozirgi zamon voqeligini ko‘rsatishga ojizlik qilib qolgan, deb hisoblaydilar. Ruh-qalb hayotini alohida qadrllovchi modernistlar, endi realistik usul va vositalar inson qalbining yashirin tublariga kirish, uni bor bo‘yicha, ro‘y-rost tasvirlash uchun ojizlik qilib qolgan, deb hisoblaydilar.

Modern she‘rlarni tahlil qilish davomida ramziy timsollarga ko‘p bora duch kelamiz va bizdan talab qilinadigan jihat ham shu timsollarni topa olishimizdir. Chunki bunday she‘rlar shoir xayoloti mahsuli bo‘lganligi sabab an’anaviylikdan qochiladi, bunday she‘rlarda timsollar tilga kiradi. Buni quyidagi she‘r tahlilida ko‘ramiz:

*Go‘yo baribirdir yaxshi va yomon*

*Yurak, senga borar ko‘chalar ochiq...*

*Sachrab yonarsan-u, bo'lmassan tamom,  
O'tkinchi g'amlarga achchiqma-achchiq.*

Ushbu she'rda "ochiq ko'chalar", "sachrab yonmoq", "o'tkinchi g'am" kabi birikmalarga e'tiborimizni qaratamiz va ularni izohlaymiz. Shunda shoir she'rda nima demoqchi ekanligini anglaymiz. Lirik qahramon shunchalik ko'p ma'naviy azob ko'rganki, uning yuragi uchun endi yaxshi va yomonning farqi yo'q. Ana o'sha azoblar uning sachrab yonishiga bir sabab emasmi? Va bu azoblarga dosh berish o'tkinchi g'amlarni achchiqma-achchiq bosib o'tishdir.

### III. **Mustahkamlash: (10 daqiqa)**

Modern she'rlar tahlili haqida qisqacha tasavvurga ega bo'ldingiz. Endi Rauf Parfining darsligingizda berilgan she'rlarini turli metodlar asosida tahlil qilamiz. "Tong otmoqda" she'rini tahlil qilishda, avvalo, shoir tong otishini nima uchun aynan zambarakka qiyoslaganini bilib olish maqsadida qog'ozga zambarakni rasmini chizib oling. Natijada zambarakning shakli quyoshga o'xshashi, uning o'qlari quyoshni eslatishini tasavvur qilishimiz mumkin. Shuningdek, zambarakni o'qi tekkan predmet jarohat oladi, o'z o'rnida bu holat quyosh nuri ta'sirida Yer sharining yaralanishiga qiyoslangan. Mana shu o'rinda she'rning modern yo'nalishda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Quyida "Yurak" she'rini "**Tushunchalar izohi**" metodi orqali tahlil qilamiz. Jadvalda she'rdan olingan turli birikmalar keltirilgan. Sizing vazifangiz birikmalarning she'rdagi o'rnini topib, qanday ma'no kasb etganligi izohlash.


## *“Tushunchalar izohi”*

Tr	Tushuncha	Izoh
1	Sachrab yonmoq	
2	O'tkinchi g'am	
3	Ochiq ko'cha	
4	Yurak to'g'risida sayramoq	
5	Mantiq axtarmoq	
6	Sho'rlik dunyo	
7	Dunyo yiqilishi	
8	Erkin sehr	
9	Sehrga tutqunlik	
10	Yo'lda uzilib qolib ketish	

Har bir tushuncha anglatgan mazmunni yonidagi qatorga yozib chiqasiz. Bunda kichik guruh bo'lib ishlaysiz va bir-biringizni fikringizni to'ldirasiz. Har 4 kishi bita kichik guruhni shakllantirib oling. Tushunchalar izohlangandan so'ng she'rning umumiy mazmuni haqida o'quvchilar fikrlari tenglanadi, o'qituvchi ham o'z fikrlarini aytib o'tadi. She'r yuzasidan xulosa yasaladi.

Endi “Yomg'ir yog'ar” she'rini **“O'tkir zehn”** metodi yordamida tahlil qilamiz. Bunda quyidagi doiralarga she'rda ramziy ma'no kasb etgan, alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaydigan so'zlaringizni yozib chiqasiz, ular anglatgan asl ma'nonini aytasiz va oxirida ularni birgalikda tahlil qilamiz






Shoirning **“Yana qaytib keldim”** hamda **“Yoz kechasi”** kabi she’rlarida tabiat tasvirining betakror qiyosini ko‘rishimiz mumkin. She’rlarni tahlil qilish ko‘nikmasi sizlarda biroz bo‘lsa-da shakllandi. Endi mavzuga xulosa yasaymiz va quyidagi jadvallarni to‘ldirib, mavzuni mustahkamlaymiz. “O‘zingizni sinab ko‘ring” mashqida berilgan tushunchalar qaysi she’rga taalluqli ekanligini belgilashingiz kerak bo‘ladi.

**O‘ZINGIZNI SINAB KO‘RING!!!**


<b><u>“Tong otmoqda”</u></b>	→	<b><u>Maysa o‘sgan tom</u></b>
<b><u>“Yoz kechasi”</u></b>	→	<b><u>Yaralangan Yer shari</u></b>
<b><u>“Yana qaytib keldim”</u></b>	→	<b><u>Qog‘ozga yog‘an ko‘ngil</u></b>
<b><u>“Yomg‘ir yog‘ar”</u></b>	→	<b><u>Turkiston yurti</u></b>
<b><u>“Yurak”</u></b>	→	<b><u>Quyoshni kutib yotgan dala</u></b>

Navbatdagi jadvalni Rauf Parfi hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar bilan to'ldirasiz, bu dars yuzasidan umumiy xulosa bo'ladi.



#### IV. Baholash va uy vazifa: (5 daqiqa)

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalariga qarab baholanadi



5 baho

4 baho

3 baho

Uyga vazifa she'rlardan birini yod olish.  
Shuningdek, dars davomida slayddan ham foydalanildi. Quyida shundan ilovalar keltiramiz:

1-ilova





**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT  
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
FAKULTETI 402-GURUH TALABASI  
ERGASHEVA HABIBANING 11-A SINFDA "RAUF  
PAEFI HAYOTI VA IJODI" MAVZUSIDA O'TGAN  
OCHIQ DARS  
TAQDIMOTI**


**Rauf Parfi**

**1943-2005**



Rauf Parfi (Tursunali Parfiyev)  
1943-yil 27-sentabrda  
Toshkent viloyati, Yangiyo'l  
tumanidagi Sho'ralisoy  
qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab  
o'rta maktabda o'qidi. Keyin  
ToshDUning filologiya  
fakultetida tahsil oldi.  
Shundan so'ng Rauf Parfi  
adabiy jarayonga faol  
aralashdi. Respublikaning  
nufuzli adabiy nashriyotlarida,  
turli gazeta va jurnallarda  
faoliyat ko'rsatdi.





2006




Rauf Parfi she'rlari yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. Shoir ijodida inson erki, Vatan ozodligi, Turkiston yodi, muhabbat tuyg'usi kabi adabiy mavzular yetakchilik qiladi. Shoir o'z quvonchlari, dard-u alami ifodasida, ko'pincha, tabiat unsurlariga murojaat qiladi.



- ❖ Tarjimon sifatida u Bayronning «Manfred», Nozim Hikmatning «Inson manzaralari», Karlo Kaladzening «Dengiz xayoli»,
- ❖ A. Tvardovskiyning «Zaytun novdasi» asarlari va boshqa ko‘plab jahon adabiyoti namoyandalarining she‘rlarini o‘zbek tiliga o‘girdi.
- ❖ Rauf Parfining o‘zbek she‘riyatiga qo‘shgan hissasi yuksak baholanib, unga 1999-yil «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.
- ❖ Shoir 2005-yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

Mening otam – Odam, momom Havodir,  
Mening Turkistonim yorilgan yerim.  
Mening farog‘atim ulug‘ jafodir,  
Mening yetim bolam – sevgili she‘rim.

Mening ilk shiorim Isfidan Zardo‘st,  
Muhammaddir Rasulloh panohim pirim.  
Mening lashkarimdir har dushman, har do‘st,  
Mening tirik nolam – sevgili she‘rim. 2003



Huvillagan uyda siqilar yurak,  
G'olib keldi oxir qora gumonlar.  
Men-da sargardonman o'zimdan yiroq,  
Horg'in ko'zlarimga cho'kmish tumanlar.

Hayhot tinglamaysan yonimga qaytib,  
Ortiq yetib bormas otashin so'zim,  
Sen ketib borasan alvido aytib...  
Men esa izlayman o'zimni-o'zim.

1973

Yuqoridagi dars ishlanma asosida ochiq dars tashkil etildi. Ochiq darsda she'rlarni tahlil qilish bilan bir qatorda Rauf Parfi shaxsiyati va uning nashr etilgan she'riy to'plamlari bilan tanishtirildi.

Pedagogik amaliyot olib borilgan maktabda o'quvchilarning modern adabiyotga oid bilimlarini sinovdan o'tkazish maqsadida kichik tadqiqot olib bordik. Unga ko'ra o'quvchilarning "Rauf Parfi hayoti va ijodi" mavzusi o'tilgunga qadar bo'lgan bilimlari va bu mavzu ochiq dars sifatida o'tilib, modern she'riyat va uning tahliliga oid bilimlari shakllangandan keyingi natijalarni tahlil qildik. Modern adabiyot maktab o'quvchisi uchun yangi yo'nalish bo'lganligi sababli, ochiq dars o'tilgunguncha bo'lgan ko'rsatkich biroz me'yordan kamroq bo'ldi. Bunda Rauf Parfining quyidagi she'rini o'quvchilar e'tiboriga havola qildik va bu she'r haqidagi fikrlarini umumiyashtirdik:

Huvillagan uyda siqilar yurak,



G‘olib keldi oxir qora gumonlar.

Men-da sargardonman o‘zimdanda yiroq,

Horg‘in ko‘zlarimga cho‘kmish tumanlar.

Hayhot tinglamaysan yonimga qaytib,

Ortiq yetib bormas otashin so‘zim,

Sen ketib borasan alvido aytib...

Men esa izlayman o‘zimni-o‘zim.

Bu she‘riy parchani taqdim etib, quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

1. She‘rdagi “qora gumonlar” jumlasini orqali nimani tushunishimiz mumkin?
2. O‘zdan yiroqlik deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zni izlash misrasini qanday izohlaysiz?
4. Sizingcha she‘rning umumiy mazmuni nima haqida?

Natija quyidagicha bo‘ldi:

Sinfi	Mavzu o‘tilishidan oldingi natija	Jami o‘quvchi	Tushunish darajasi	Foizi
11-A		24	6	25%

Ochiq dars o‘tilib, o‘quvchilar modern she‘riyat haqida bilimlarga ega bo‘lishganidan so‘ng so‘rovnomaning ikkinchi bosqichi o‘tkazildi. Endi o‘zbek modernistik shoiri Abduvali Qutbiddin ijodidan ushbu parcha o‘quvchilarga berildi:

Nahrlarda etagi yirtiq

Lo‘li qizday qarg‘anar osmon.

Sohil bo‘ylab ketmoqda yo‘rtib -

Oppoq biya

Bedard,

Bedarmon

Arqon kabi tortiladi yel,

Sug‘riladi oftobrang qoziq.

Sapchiyotgan to‘lqin uchidan –

Yana to‘rga tushadi baliq.

Bu she‘r matni berilgandan so‘ng ham savollar bilan murojaat qildik:

1. She‘rda ramziy ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlar qaysilar?
2. She‘rda osmonni lo‘li qizga o‘xshatilishini qanday izohlaysiz?
3. Boshqa ijodkorlar ijodida osmon nimalarga qiyoslangan?
4. Yelning arqonday tortilish holatini izohlang.
5. Bu she‘rning modernligi nimada deb o‘ylaysiz?

Modern she‘rlarni tahlil qilishga doir ko‘nikma shakllangan o‘quvchilar bu bosqichda ancha faollik ko‘rsatishdi. Natija quyidagicha:

<b>Sinfi</b>	<b>Mavzu o‘tilgandan keyingi natija</b>	<b>Jami o‘quvchi</b>	<b>Tushunish darajasi</b>	<b>Foizi</b>
<b>11-A</b>		<b>24</b>	<b>21</b>	<b>88%</b>

Bundan xulosa qilish mumkinki, yuqori sinflarning adabiyot darslarida modern adabiyot, modern she'riyat haqida nazariy ma'limot berilib, modern she'rlar tahliliga oid bilimlar o'quvchilarda shakllantirilsa, o'zlashtirish foizi sezilarli darajada oshadi.

## XULOSA

Har qanday tadqiqot ishi borki, yakunida qandaydir samaraga ega bo'ladi, oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshiradi. Ushbu Bitiruv malakaviy ishiga ham umumiy xulosa hosil qiladigan bo'lsak, bu ishning maqsadi modern she'riyatni o'qitish bo'yicha o'ziga xos metodologiya ishlab chiqish edi.

Tadqiqotning muqaddimasi ishning umumiy tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, unda mavzuning dolzarbaligi, ishning o'rganilish darajasi, tadqiqotning maqsadi, yangiligi, ilmiy va nazariy ahamiyati, tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari, oldiga qo'ygan vazifalari kabi qismlardan iborat. Unda yoritilishicha mavzuning dolzarbligi, ta'lim jarayonida modern adabiyotdan namunalar keltirilgan, shunga mos metodologiya ishlab chiqish hozirgi zamon metodistlarining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda ushbu tadqiqot amalga oshirilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida adabiyotshunos va metodist olimlarning asarlari va g'oyalariga bevosita tayangan holda ish olib bordik. Jumladan, Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Karimov, Ulug'bek Hamdam, Qunduz Husanboyeva, Boqijon To'xliyev, Dilmurod Quronov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Izzat Sulton kabi olimlar asarlaridan foydalanib, havolalar keltirildi.

I bob "Modern she'riyatni o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" deb nomlanib, bunda ta'lim jarayonida modern she'rlarni o'qitishning oltita ahamiyati sanab o'tilgan. Bularga modern she'rlarni o'qitish bola hissiyotining shakllanishi, dunyoqarashining o'sishi, ruhiyat olamining kengayishi kabi holatlarga ta'sir ko'rsatishi, maktabda fanlararo integratsiyani shakllantirishda modern she'rning o'rni beqiyos ekanligi, darsliklarda modern she'rlar va uning tahlili haqida qisqacha nazariy ma'lumot berib o'tilishi kabi jihatlar kiritilgan. Ularda izohlanishicha modern she'rni tushunish insondan keng tushuncha va yuksak tafakkur, chuqurroq bilimni talab qilgani bois modern she'rlarni aynan maktab ta'limida o'qitilishi o'ish kelayotgan yosh avlod ongi va tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”<sup>20</sup>, buning uchun, albatta, yosh avlod tarbiyasiga e’tiborni maktabgacha ta’lim va maktab ta’limidan boshlamog‘imiz maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ushbu bobga modern adabiyotning paydo bo‘lishiga doir nazariy ma’lumotlar kiritilgan. Modern she’riyatning maktab ta’limiga kirib kelishi va ta’lim bosqichlarida o‘qitilishiga oid ma’lumotlar ushbu bobdan o‘rin olgan.

II bob “Modern she’riyatni o‘qitish metodikasi” deb nomlanib, bu bobdan modern she’riyatni o‘qitishga doir yondashuv va tamoyillar o‘rin olgan. Unda modern she’riyatni o‘qitishga doir assotsiativ, avtopsixologik hamda integrativ yondashuv izohlab berilgan. Bu yondashuvning metodikadagi ahamiyati hamda o‘qitishdagi samaradorligi tavsiflab berilgan. Bobning ikkinchi qismida modern she’rlarni noan’anaviy usullarda o‘qitish masalasi yoritilgan. Bunda modern she’rlarni o‘qitishda “**Besh qadam**” nomli texnologiya ishlab chiqilib, uning ahamiliyotga tatbiqi izohlab berilgan. Bu texnologiyada modern she’rlarni o‘qitishda quyidagi besh qadam havola etilgan:

1-qadam – ma’lumot;

2-qadam – yaqqol fikr;

3-qadam – namuna;

4-qadam – mustaqil tahlil;

5-qadam – farqlash.

III bob “BMIning amaliyotga tatbiqi” bo‘lib, unda maktab ta’limida Rauf Parfi hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha dars ishlanma, tarqatma materiallar,

---

<sup>20</sup> Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон. 2016. 14-бет

ko'rgazmali qurollar hamda darsda foydalanilgan metodlar o'z aksini topgan. Shuningdek, matkabdagi pedagogik amaliyot davomida o'quvchilarning modern she'riyat va uning tahliliga doir bilimlarini sinab ko'rish maqsadida kichik tadqiqot o'tkazildi. Unda o'quvchilarning ochiq dars o'tilishdan oldingi va dars o'tilgandan keyingi bilimlari foizga hisoblanib, jadvallashtirildi.

Bitiruv malakaviy ishining so'nggida quyidagi ikkita taklifni ilova qilmoqchimiz:

1. Maktab ta'limining yuqori sinflarida, ya'ni 9-10-11-sinflardan birida modern adabiyot haqida nazariy ma'lumot berish.
2. Yuqori sinflarda mustaqil o'qish uchun modern she'riyat namunalarini taqdim etish.

## Glossary – lug‘at

adabiyot - literature

she‘riyat - poetry

yo‘nalish - trend

usul - method

qobiliyat - ability

davr - period

bosqich - step

jarayon - process

islohot - reform

boyitmoq - enrich

garmoniya - harmony

anglamoq - understand

muddao - purpose

ifoda etmoq - express

ocharchilik - starvation

kashfiyot - discovery

fenomin - phenomenon

daraja - level

shodlik - fondness

majmua - code

qahramon - hero

shubha - doubt

o‘rin olmoq - occupy

tahlil - analysis

qamrab olmoq - embrace

band - item

mansub bo‘lmoq - belonging

murojaat qilmoq - appeal

tuyg‘u - feeling

yolg‘iz - alone

muvofiq - correspond

mahorat - skill

ma‘lumot - information

ishtirok etmoq - participate

yondashuv - approach

xizmat qilmoq - serve

mantiq - logic

salohiyat - capability

hasrat - grief

qadr - price



## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: 2008. Б. 206.
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон. 2016. Б. 54.
3. Mirziyoyev Sh. Ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv. - Guliston: 2018.

### **II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:**

4. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. doktori diss. – Toshkent: 1997.
5. Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o'rganish. Adabiyot o'qituvchilariga yordam. – Т.: O'qituvchi, 1986.
6. Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Тошкент: 1987. Б. 224.
7. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Т.: F.Фулом. 2016. Б. 364.
8. Йўлдошев Қ. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак. 2016. Б. 462.
9. То'хлиев В., Каримов В., Usmonova K. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. II qism. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. B. 198.
10. To'xlijev B. Adabiyot o'qitish metodikasi: (Oliy o'quv yurtlari filologiya yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma). – Т.: Yangi asr avlodi, 2006. Б. 150.

11. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. – T.: Cho‘lpon. 2008. B. 95.
12. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. B. 408.
13. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Xalq merosi. 2004.
14. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot darslik (7-sinf). – Toshkent.: Sharq, 2017. B. 366.
15. Шарафиддинов О. “Ижодни англаш бахти”. ШАРҚ НМАК. - Т.: 2004. Б. 640.
16. Норматов У. Етуклик. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. - Т.: 1982. Б. 368.
17. Норматов У. Гўзаллик билан учрашув. Ёш гвардия. - Т.: 1976. Б. 208.
18. Баҳодир Карим. Янгиланиш соғинчи. Адабиёт жамғармаси нашриёти. - Т.: 2004.
19. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. Фан. - Т.: 2012. Б. 248.
20. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Ўқитувчи. - Т.: 1986. Б. 408.
21. Матёқуб Қўшжонов. Сайланма. 1-жилд. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. - Т.: 1982. Б. 384.
22. Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. Ёш гвардия. – Т.: 1985. Б. 224.
23. Улуғбек Ҳамдам. Бадиий тафаккур тадрижи. Янги аср авлоди. - Т.: 2002. Б. 200.
24. Адабиётшунослик луғати. (Д. Қуронов ва б.). Академнашр. - Т.: 2013. Б. 408.
25. Шукуров Н, Ҳотамов Н ва б. Адабиётшуносликка кириш. Ўқитувчи. - Т.: 1984. Б. 268.

26. Абдулла Орипов. Эҳтиёж фарзанди. Ёш гвардия. – Т.: 1988. Б. 234.
27. Аристотел. Поэтика. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 1980. Б. 168.

### III. Vadiiy adabiyotlar:

28. Рауф Парфи. Сўнги видо. Тошкент – 2006. Б. 133.
29. Фахриёр. Излам. Т.: Академнашр – 2017. Б. 363.
30. Рауф Парфи. Туркистон руҳи. Т.: Шарқ – 2013. Б. 319.

### IV. Internet manbalari:

31. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
32. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
33. [www.khurshiddavron.uz](http://www.khurshiddavron.uz)
34. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
35. [www.ziyo.uzkutubxona](http://www.ziyo.uzkutubxona)
36. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
37. [www.navoi.uni.uz](http://www.navoi.uni.uz)